

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA – MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

“Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik” fakulteti

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Mavzu: XITOIY KO`MIR SANOATINING DUNYODAGI O`RNI
VA RIVOJLANIS MUAMMOLARI

Bajardi: 5342500 –“Xitoyshunoslik”ta’lim yo’nalishi bitiruvchisi

Doniyorova Zuhrajonu Alisher qizi

Ilmiy rahbar: i.f.n. Abduvaliev A.A.

Toshkent - 2014

HIMOYAGA RUHSAT BERILDI

“XMI va mamlakatshunoslik” fakulteti dekani i.f.n. Maxmudov E.A “ ____ ” _____ 2014y _____	“Xitoy va JSHO mintaqasi mamlakatlari iqtisodiyoti va mamlakatshunosligi” kafedra mudirasi dots. Melibayeva G.A “ ____ ” _____ 2014y _____
---	---

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA KO`MIR SANOATINING TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI.....	6
1.1. Jahon energetika bozo`rining rivojlanishi va unda ko`mir sanoatining o`rni	6
1.2. Jahon iqtisodiyotida ko`mir sanoatining rivojlanish jarayonlari va unda Xitoyning tutgan o`rni va ahamiyati	12
II BOB. XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING KO`MIR SANOATIDA MAVJUD MUAOMMOLAR TO`PLAMI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO`NALISHLARI.....	22
2.1. Xitoy Xalq Respublikasi ko`mir sanoatining rivojlanish tendentsiyalari va yo`nalishlari.....	22
2.2. Xitoy Xalq Respublikasining ko`mir sanoatida mavjud muaommolar to`plami.....	29
2.3. Xitoy Xalq Respublikasi va O`zbekiston Respublikasining ko`mir sanoatidagi hamkorlikning ustuvor yo`nalishlari.....	37
XULOSA.....	47
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	56

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, bugungi kunda barcha davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi aksariyat hollarda xom-ashyo zahiralarning boyligi va turli tumanligiga bog'liq bolmoqda. Xom-ashyo zahiralar qatorida bugungi kunda ko'mir alohida o'rin egallaydi. Zero mazkur xom-ashyo energiya manbai sifatidagi ahamiyati oshib bormoqda va kelajakda ushbu tendensiyaning saqlanishi kutilyapti.

O'z navbatida Xitoy bugungi kunda jahondagi eng yirik ko'mir ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi davlatlardan biri hisoblanadi. Zero so'nggi bir necha o'n yillar davomida Xitoy mazkur tarmoq bo'yicha liderlik o'rnini egallab kelmoqda.

Xitoy singari ham O'zbekiston mazkur tarmoqqa alohida e'tibor qaratmoqda va ushu tarmoqning bugungi kundagi rivojlanish jarayonlari shundan dalolat beradiki O'zbekiston ushbu tarmoq bo'yicha bir qancha ustuvorliklarga egadir. Shu bois aynan Xitoyning ko'mir sanoatida olib borilayotgan islohotlari jarayonlarini o'rganish va tadqiq etish tadqiqot ishi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Mazkur mavzuning ba'zi qirralari Xitoy iqtisodchi olimlari tomonidan, xususan, Syuy Disin, Tuan Ping, Van Menkuy, Li Szinven, Lu Yunsyan, Chjou Veydi, Chjao Xuashen, Su Fenlin Li Szin Ven,¹ Lyu Goguan², Li Ke,³ va boshqalar o'zlarining monografik kitoblari va ilmiy maqolalari orqali ochib berganlar.

Shu bilan birga, ular qatorida ushbu muammoni turli qirralarini o'z asarlarida yoritib kelayotgan MDH davlatlari iqtisodchi-Xitoyshunos olimlaridan

¹ Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность. /РАН ИДВ.- М., 2000, вып. 9., с.9-29.

² Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая.// Проблемы ДВ,- 2001, № 6, с. 64-70.

³ Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая.//Проблемы теории и практики управления. 2002, № 1, с. 63-67.

A.V.Ostrovskiy,⁴ E.F. Avdokushin,⁵ Ye.P. Bajenov,⁶ M.V. Baranov,⁷ Ya.M.Berger⁸, M.L.Titorenko,⁹ Muromseva Z.A.¹⁰ va boshqalar tadqiqotlarida o'rganganlar.

Respublikamizning iqtisodchi olimlari asosan O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirish shu jumladan, Xitoy iqtisodiyoti va Xitoy iqtisodiyotining energetik tarmoqlari bo'yicha chuqur izlanishlar olib borilgan. Ular jumlasidan A.Sh.Bekmurodov, A.A.Isadjanov, A.M.Qodirov, G.A.Melibaeva, B.D.Sadibekova, E.R.Mahmudov¹¹ va boshqalar.

Tadqiqot ishining maqsadi. Xitoy ko'mir sanoatining dunyodagi o'rni va rivojlanish muammolarini tadqiq etish.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

- jahon energetika bozo'rining rivojlanishi va unda ko'mir sanoatining o'rni o'rganish;
- jahon iqtisodiyotida ko'mir sanoatining rivojlanish jarayonlari va unda Xitoyning tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- Xitoy Xalq Respublikasi ko'mir sanoatining rivojlanish tendentsiyalari va yo'nalishlarini hamda ushbu tarmoqda mavjud muammolar to'plamini tadqiq etish;
- Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston respublikasining ko'mir sanoatidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari aniqlash.

Tadqiqotning ob'ekti. Xitoyning ko'mir sanoati tadqiqot ob'ekti bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning predmeti. Xitoy ko'mir sanoatining o'rni va rivojlanish muammolarini aniqlash tadqiqot predmeti bo'lib xizmat qiladi.

⁴ Островский А.В. «Состояние и перспективы строительства экономики КНР», КНР: политика, экономика, культура, 2007г. Под ред.Титаренко М.Л., М., с. 77.,

⁵Е.Ф. Авдокушин. Международные экономические отношения, учебник, Юность, М., 2004 г. с.368.

⁶ Баженов Е.П. «Китай и внешний мир» М, 2000 г.

⁷ Баранов М. Специальные экономические зоны Китая, М.,2002

⁸ Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая.-М.: Магистр, 2009.- 574 с.

⁹Титоренко М.Л. «Стратегия Китая по превращению супер индустриальную страну » ,М., 2006 г.

¹⁰Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009. 264 с.

¹¹ B.D.Sadibekova. Xitoyda fan va ta'lim sohasining rivojlanishi, Xitoy iqtisodiyoti, 3-qism, B. 44-56.

Tadqiqotning ilmiy yangiligii. Xitoy ko`mir sanoatining dunyodagi o`rni va rivojlanish muammolarining aniqlanishi tadqiqotning ilmiy yangiligini belgilaydi.

Ishning amaliy ahamiyati. Mavzu bo'yicha qilingan tahlil natijalari, xulosalar va tavsiyalar Xitoy va O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida bu yo'nalishda amaliy yo'llanma bo'lishi, o'quv jarayonida esa, Xitoy iqtisodiyoti fani bo'yicha qo'llanma sifatida undan foydalanish mumkin.

Bitiruv-malakaviy ishning tarkibi - kirish, 2 ta bob, 5 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iboratdir.

I BOB. JAHON IQTISODIYOTINING RIVOJLANISHIDA KO`MIR SANOATINING TUTGAN O`RNI VA AHAMIYATI

1.1 Jahon energetika bozo`rining rivojlanishi va unda ko`mir sanoatining o`rni

Ma'lumki, energetika inson va jamiyat hayotida muhim o`rin tutadi, ularning turli ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlarini ko`paytirish imkonini beradi. Inson sivilizatsiyasining rivojlanishi foydalanilayotgan energiya hajmi va turlari bilan har doim chambarchas bog`liq bo`lgan.

Bugungi kunda sodir bo`layotgan global fojia sababi shundan iboratki, XX asr davomida, ayniqsa, so`nggi 50 yil ichida insonlarning iqtisodiy rivojlanish maqsadida energiyadan foydalanish miqdori ancha oshdi. Bu esa atrof-muhitga salbiy ta`sir ko`rsatmoqda. Chunki, iqlimning dunyo miqyosida global isib ketishi, yoqilg`ining organik turlaridan foydalanadigan issiqlik elektr stansiyalarining ishlashi natijasida yuzaga keladigan, shuningdek, tobora ko`payib borayotgan ichki yonish dvigatellarining atmosferaga chiqarayotgan gazlar bilan bevosita bog`liq.

So`ngi 50 yil ichida butun insoniyat tarixida qazib olingan yoqilg`iga nisbatan, ko`proq organik yoqilg`i qazib olindi. Joriy yuz yillik ham, bundan mustasno emas. Bugungi kunda dunyoda yoqilg`idan foydalanish miqdori yiliga 12 milliard tonna neft ekvivalentini tashkil etadi (taxminan bir kishiga 2 tonna neft). Organik yoqilg`iga bo`lgan talab esa jadal sur`atlarda yanada ortib boraveradi.

Neft, tabiiy gaz, ko`mir va uran kabi qazib olinadigan yoqilg`i turlari ayni paytda jahon energetika balansining negizini tashkil etadi va yaqin kelajakda ham shunday bo`lib qoladi. Vaholanki, ushbu yoqilg`i resurslari, ularga ishlov berish hamda ulardan foydalanilish tobora kamayib bormoqda.


Energiya resurslaridan hozirgi kunda foydalanish darajasi bo`yicha jahondagi neft zaxirasi 45-50 yy.ga, tabiiy gaz 70-75, toshko`mir 165-170, qo`ng`ir ko`mir 450-500 yillarga va yadro yoqilg`isi esa nisbatan ko`proq yillarga yetishi hisoblandi.

Energiyani ishlab chiqish va undan samarali foydalanish odamzodning doimiy yashash uchun kurash yo‘li bo‘lgan. Hozirgi vaqtda uni iste‘mol qilish nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy ko‘rsatkichlardan biri bo‘lib, asosan odamlarning farovonlik darajasini belgilaydi. Kelajakda energetika dunyoni boshqaradi degan ibora aynan, shuning uchun ham bugungi kunda dolzarbdir.

Zamonaviy energetika – bu yoqilg‘i tarmog‘ini hamda elektroenergetikani o‘z ichiga olgan xalq xo‘jaligining majmuaviy tarmog‘idir. U birlamchi energetik resurslarni qazib chiqarish, qayta ishlash va tashish, elektroenergiyani ishlab chiqarish va yetkazish bo‘yicha faoliyatni qamrab oladi. Bir-biri bilan uzviy bog‘langan barcha kichik tarmoqlar har qanday mamlakatning iqtisodiyotida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan birlashgan yoqilg‘i-energetik majmuani (YoEM) tashkil qiladi, modomiki usiz xo‘jalikning birorta bir qismi normal faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas. YoEM ning o‘zi ham ishlab chiqarishning eng miqyosli tarmoqlariga kiradi.

1.1.2- Diagramma.

2010 yilda energetikaga bo‘lgan jahon ehtiyoji¹²



¹² В.П. Максаковский. «Пути развития мировой энергетики». М., 2009 г. 55 стр.

XX asr davomida birlamchi energoresurslardan foydalanish dinamikasi uchun muntazam, lekin har doim ham bo'lmagan bir tekis o'sish belgilandi. XX asr bo'yicha dunyoda umumiy foydalanish 2000 yilda 21,3 mlrd.t. shartli yoqilg'iga yyetib, u 1960 yillarga nisbatan 19-20 marotaba ko'paydi¹³.

Ammo 70-yillarning o'rtalarida jahon energetikasining rivojlanishida juda katta o'zgarishlar amalga oshirildi: arzon yoqilg'ining uzoq davomli davri tugaganligini bildirgan energetika (birinchi navbatda neft) krizisi boshlandi. U vujudga kelishi sabablari orasida yoqilg'ini, ayniqsa neftni qazib olish, u ekstremal tabiat sharoitlardagi xududlarga (Shimol, Saxara), kontinental shelfga o'tishi, shuningdek atrof muhitni himoya qilish talablari kuchayishi bilan bog'liq tog'li-geologik sharoitlarining yomonlashishidir.

Boshqa tomondan, ushbu krizis xo'jalikning jahon kapitalistik tizimidagi qarama-qarshilik keskinlashishi, rivojlanayotgan mamlakatlarning o'z neft resurslari uchun kurashishlarining oqibatidir. 1971-yil ohirlarida arab mamlakatlari neft narxlarini arab-isroil xarbiy to'qnashuvida Isroilni qo'llagan g'arb mamlakatlari qarshi siyosiy qurol sifatida ushbu narxni bir tonna uchun 250-300 dollarga oshirib ishlatishgan. Natijada arzon neftga mo'ljallangan g'arb mamlakatlarining iqtisodiyoti haqiqiy shokni boshdan kechirdi.

Yangi energetika siyosati jahon energoishlatish tuzilishdagi ma'lum o'zgarishlarga olib keldi. XX asr davomida uning uchun o'ziga hos ketma-ket ikkita bosqich o'zgartirilishi amalga oshirilgan – ko'mir va neft-gaz.


Ko'mir bosqichi XX asrning ortasigacha davom etdi (1900 yilda ko'mir ulushi deyarli 60%, 1913 yilda – 80%, 1950 yilda – 58% tashkil qilgan). Keyin neft va gaz katta natijasi, yaxshi tashish bilan bog'liq, shuningdek boy neft va gaz konlari ochilishi bilan bog'liq neft va gaz bosqichi boshlandi. Jahon energoishlatishda neft va gaz ulushi 1973 yilda o'zining yuqori choqqisiga yetdi (77%).

¹³ В.П. Максаковский. «Пути развития мировой энергетики». М., 2009 г. 57 стр.

Jahonda energetik tanqislik boshlanib ketgandan keyin, energiyani ishlatish rivojlanishidagi yangi, o'tish bosqichi haqida gapirildi, uning asosiy maqsadi mumkin qadar organik yoqilg'ini, ayniqsa neftni ishlatishdan tezroq tiklanadigan, alternativ energiya konidan foydalanishga, atom energetikasiga o'tishdir deb hisoblanardi.

1.1.2- Diagramma.

1970-2010 yillar mobaynida jahon energetika tarmog'ida ko'mirning iste'moli¹⁴



Ammo energetika inqirozi yengilgandan keyin va neft yanada arzonlashgandan keyin jahon energoishlatish tuzilishining inersionligi va uning nisbiy barqarorligini saqlab qolish zarurligi haqida aytib o'tildi. XX asrning oxirgi o'n yillikda unga nisbiy barqarorlik o'ziga xos, hatto bunda neft ulushi birmuncha kamayishni boshladi, tabiiy gaz esa – ko'paydi.

Er yuzida sivilizatsiyaning rivojlanishi foydalanilayotgan energiya turi va hajmi bilan har doim chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Bugungi kunda


¹⁴ Manba: Макасовский В.П. «Пути развития мировой энергетики» ma'lumotlari asosida muallif tamonidan tuzilgan.

energiyadan foydalanish hajmi shunchalik kengaymoqdaki, uning kelgusida yanada ko‘payishi biosfera, demakki, kelajakda insoniyatning rivojlanishi uchun ham katta xavf tug‘diradi. Shu sababli butun dunyoda o‘tgan asrning oxirgi o‘n yilidan boshlab, energiyaning qayta tiklanadigan ekologik toza manbalari, avvalo, quyosh va shamol manbalaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratila boshlandi. Masalan, dunyoda hozir shamol energiyasini o‘zlashtirish sur‘atlari faqat axborot texnologiyalaridan biroz ortda qolmoqda.

Muqobil energiya manbalarining rivojlanishi va neftni iqtisod qilishga qaratilgan say harakatlar natijasida 1982-1992-yillar davomida neft iste‘moli 2788 mln tonnadan 3128 mln tonnaga (12,2%) oshdi. Birlamchi energiya iste‘moli 1982-yilda 43,3%ga, 1992-yilda 40,1%ga qisqargan¹⁵.

1.1.3- Diagramma.

1970 -2010 yillar mobaynida jahon energetika tarmog‘ida Neftning iste‘moli¹⁶



Qazilma yoqilg‘i turlarining geologik zaxiralari turli geografik hududlarda bir xil teng taqsimlanmagan va ularni qazib olish xarajatlari ham bir-biridan farq qiladi. Har xil yoqilg‘i va energiya turlari muayyan mamlakatlar hududlarida


¹⁵ Jurnal, Gaz & Oil, 1996 y, p.31.

¹⁶ Manba: OPEC ma‘lumotlari asosida muallif tamonidan tuzuldi.

to'planib qolganki, ushbu mamlakatlarda energiya iste'mol qilish miqdori ba'zida ulardagi organik yoqilg'i zaxiralaridan ancha kam. Bu esa energiya tashuvchilar uchun narxlarning o'sishi, ayrim mamlakatlar va aholining ba'zi toifalarining energetika xizmatlaridan foydalanishini cheklab qo'ymoqda hamda davlatlar o'rtasida qarama-qarshiliklar, hattoki urushlarga sabab bo'lmoqda. Bundan tashqari organik yoqilg'ini qazib olish, qayta ishlash, transportirovka qilish va undan foydalanish natijasida atrof-muhitga ham mislsiz zarar yetkazmoqda.

1.1.4-Diagramma.

1970-2010 yillar mobaynida jahon energetika tarmog'ida atom energetikasining iste'moli¹⁷.



Bugun, yadro energetikasi issiqxona gazlarining atmosferaga chiqishini kamaytirishga qaratilgan energiya ta'minoti muammosining yechimi sifatida ko'rib chiqilayotgan ekan, ushbu texnologiyaning radioaktiv chiqindilarini ham esdan chiqarmaslik lozim. Ularning zararli ta'siri ming yillargacha cho'ziladi, shuning uchun radioaktiv chiqindilar ishonchli joylarga (sarkofaglarga joylashtirib mustahkam ko'milishi lozim. Bu masalalarga jiddiyoq e'tibor berilsa, yadro energetikasi katta mablag'talab qiladigan tarmoq ekanligini anglab yetish qiyin emas.

¹⁷ Manba: MAGATE ma'lumotlari asosida muallif tamonidan tuzildi.

Albatta, energiyani samarali ishlab chiqarish va undan oqilona foydalanish tabiiy resurslarimizni asrab-avaylash va atrof-muhit yemirilishining oldini olish borasidagi eng qulay usuldir.

Zamonaviy energetika texnologiyalarini rivojlantirish va joriy etish (issiqlik va elektr energiyasini birgalikda ishlab chiqarish, yoqilg'i elementlari, ko'mirni gazlashtirish, suyuq sintetik yoqilg'i turlari), yoqilg'i va energiyadan foydalanish samaradorligini oshirish, keng miqyosda energiya ishlab chiqarish jarayonida qayta tiklanadigan energiya manbalari ulushini oshirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Iste'molchilarning energiyadan foydalanishi ham, muhim masalalardan hisoblanadi. Biz energiyadan yanada oqilona foydalanishimiz darkor. Bundan ko'zlangan maqsad, qimmatli resurslar zaxirasini kamaytirmaslik, atrof-muhitning ifloslanishi va yemirilishiga salbiy ta'sir ko'rsatmaslik hamda energiyani behuda ishlab chiqarmaslikdir. Bu yondashuv energiya uchun uni ishlab chiqarish tannarxiga yaqinlashadigan narxni belgilashni talab qiladi, shuningdek, u samara beradigan energetika uskunalari ishlab chiqarish va aholi ongida energiyadan tejab-tergab foydalanish tushunchasini shakllantirishga qaratilgan.

1.2. Jahon iqtisodiyotida ko'mir sanoatining rivojlanish jarayonlari va unda Xitoyning tutgan o'rni va ahamiyati

Ma'lumki bugungi kunda barcha davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi aksariyat hollarda xom-ashyo zahiralarining boyligi va turli tumanligiga bog'liq bolmoqda. Xom-ashyo zahiralar qatorida bugungi kunda ko'mir alohida o'rin egallaydi. Zero mazkur xom-ashyo soni bir necha yillarda ko'mirning energiya manbai sifatidagi ahamiyati oshib bormoqda va kelajakda ushbu tendensiyaning saqlanishi kutilyapti.

2012-yilda jahondagi birinchi darajali energiya ehtiyojlarini 26% ko'mir orqali ta'minlangan. "Energy Information Administration" (EIA) ma'lumotlariga

asosan 2030-yilga kelib ko`mirning energiya tashuvchi manba sifatidagi iste`moli 28% ni, elektro-energiya ishlab chiqarishdagi ulushi esa 45% ni (2004-yilda 43%) tashkil qiladi. Hozirgi vaqtda ko`mir gaz va neft bilan raqobatda narx bo`yicha ustunlikga ega.

Bugungi kunda jahondagi eng asosiy ko`mir qazib chiqaruvchilari va eksportyor davlatlardan Avstraliya, Indoneziya, Xitoy, Rossiya, AQSh va JAR davlatlarini misol qilishimiz mumkin. Mutahasislarning tahminlariga ko`ra 2030-yilgacha bo`lgan vaqtda ko`mirning asosiy eksportyorlari Avstraliya, Kanada va AQSh bo`lib qoladi va aksincha Xitoy va Vyetnan eksportini qisqartiradi. Kokslangan ko`mir bilan jahon savdosida Avstraliya ustunlik qilishi mumkin, uning hissasiga mintaqadagi kokslangan ko`mirga bo`lgan talabni 73% to`g`ri keladi. Zero, 2010-yilda Avstraliya ushbu sohaga katta investisialar kiritgan, yani ko`mirni eksport qilishga ixtisoslashtirilgan portlar modernizatsiya qilingan, ko`mir terminallarining quvvati oshirilgan, va ko`mir qazib chiqaruvchi shtatlarining temir yo`llari eksport salohiyatini oshirish maqsadida takomillashtirilgan.

Germaniya ko`mir importyorlari kengashi prezidenti va “RWE Power” analitiki V. Richel taxminlariga ko`ra 2030-yilgacha bo`lgan vaqt oralig`ida ko`mir qazib chiqarishning o`rtacha o`sish hajmi 1-2% ni tashkil qiladi, ko`mir savdosi o`sish hajmi esa 1,5%-3% atrofida bo`ladi.

2012-yil yakunlariga ko`ra jahondagi qazib chiqarilishi mumkin bo`lgan ko`mir hajmi 1,12 trln. tonnani tashkil qilgan bo`lib uning 66%i 4 ta davlatga to`g`ri keladi (AQSh – 27%, Rossiya – 17%, Xitoy – 12% va Hindiston – 10%).

1.2.1-jadval

Jahon bo'yicha ko'mir ishlab chiqarish hajmi va davlatlar bo'yicha uning ulushi (mln. tonna)¹⁸

Davlatlar	2005	2006	2007	2008	2009	2010	2011	2012	Ulush (%)
XXR	2204,7	2380,0	2526,0	2782,0	3050,0	3240,0	3520,0	3650,0	46,4
AQSH	1026,5	1053,6	1040,2	1062,8	973,2	984,6	992,8	922,1	11,7
Hindiston	428,4	447,3	478,4	521,7	557,6	569,9	588,5	605,8	7,7
Yevropa Ittifoqi	608,0	595,5	593,4	587,7	536,8	535,7	576,1	580,7	7,4
Avstraliya	378,8	385,3	399,0	401,5	409,2	423,9	415,5	431,2	5,5
Indoneziya	146,9	195,0	217,4	229,5	252,5	305,9	324,9	386,0	4,9
Rossiya	298,5	309,2	314,2	326,5	298,1	316,9	323,5	354,8	4,5
JAR	244,4	244,8	247,7	250,4	250,0	253,8	255,1	260,0	3,3
Germaniya	202,8	197,2	201,9	192,4	183,7	182,3	188,6	196,2	2,5
Polsha	159,5	156,1	145,9	143,9	135,1	133,2	139,2	144,1	1,8
Qozog'iston	86,6	96,2	97,8	111,1	101,5	110,8	115,6	116,4	1,5
Jahon bo'yicha jami	5886,7	6195,1	6421,2	6781,2	6940,6	7273,3	7995,4	7864,7	100

1.2.1-jadval ma'lumotkarini tahlil qiladigan bo'lsak 2005 yildan to 2012 yilga qadar jahon bo'yicha ko'mirni qazib chiqaruvchi asosiy davlatlarning qazib

¹⁸ Muallif tomonidan mazkur manbalar jamlangan va tahlil qilingan: BP Statistical Review of World Energy 2009 (XLS); Statistical Review of World Energy 2010; Statistical Review of World Energy 2011; Statistical Review of World Energy 2012; Statistical Review of World Energy 2013.

chiqarish tendensiyalari yildan-yilga ortib borgan va ushbu tarmoqda na pasayish va na to'xtab qolish tendensiyalari kuzatilmagan. Masalan, 2005 yilda mazkur ko'rsatkich 5886,7 mln. tonnani tashkil etgan bo'lsa 2012 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 7864,7 mln. tonnani tashkil etgan.

Tahlil qilinayotgan davlatlar ichida 2012 yil ma'lumotlariga qaraganda liderlik Xitoy davlatiga tegishlidir, undan keyingi o'rinni AQSh, Hindiston va Evropa Ittifoqi davlatlari egallagandir. Ta'kidlash lozimki mazkur tahlil qilinayotgan davrda Xitoy ko'mirni qazib chiqarish bo'yicha o'z liderligini yoqotgani yoq. Ma'lumotlarga ko'ra 2005 yilda Xitoyning ko'mirni qazib chiqarish ko'rsatkichi 2204,7 mln. tonnani tashkil etgan bo'lsa, 2006 yilda ushbu ko'rsatkich 2380,0 mln. tonnani, 2007 yilda 2526,0 mln. tonnani, 2008 yilda 2782,0 mln. tonnani, 2009 yilda 3050,0 mln. tonnani, 2010 yilda 3240,0 mln. tonnani, 2011 yilda 3520,0 mln. tonnani, 2012 yilda 3650,0 mln. tonnani tashkil etgan.

Shuningdek EIA mutaxassislarining taxminlariga ko'ra 2030-yilga kelib jahon bo'yicha ko'mir iste'moli 74% ga oshadi, 2015 yilgacha esa ko'mir iste'moli hajmi yiliga 2,6% dan o'sadi, 2015-2030 yillarda esa o'sish ko'rsatkichi 1,8% dan bo'ladi. Bunga sabab 2015-yildan so'ng Osiyo Tinch Okeani mintaqasidagi davlatlar va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanish darajasini pasayishining kutilayotgani sabab qilib ko'rsatilmoqda. 2030-yilda 2005-yildagiga qaraganda ko'mir iste'moli hajmi 44% ga oshishi ham taxmin qilingan.

Umuman olganda bugungi kunda insoniyat tomonidan iste'mol qilinayotgan energiya manbalari ichida ko'mirning ulushi ham yuqoridir va ushbu tendensiya yildan-yilga saqlanib qolinmoqda (1.2.2-jadval).

1.1.2-jadval ma'lumotlariga qaraganda jahon energiya manbalari iste'moli bo'yicha ko'mir kamida 25 yil davomida ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda. Masalan, 1985 yilda ko'mirning iste'moli boshqa energiya manbalari ichida iste'moli 25%ni tashlik qilgan bo'lsa ushbu tendensiya deyarli boshqa yillarda ham saqlanib kelingan, birgina 2005 yil ma'lumotlariga ko'ra mazkur tendensiyaning

birmuncha pasayishi kuzatilinadi va ushbu ko'rsatkich 21,2%ni tashkil etgan. Mutahasislarning fikrlariga ko'ra umuman olganda jahon energiya manbaalari bozorida ko'mir iste'molining boshqa manbaalarga nisbatan yuqori darajada saqlanib qolishiga asosiy sabab bu uning boshqa manbaalarga nisbatan narxinig arzonligida deb ko'rilmogda. Zero bugungi kunda aksariyat hollarda ko'mir sanoatda energiya – issiqlik va energiya etkazib berishda eng arzon xom-ashyo sifatida foydalanilmoqda¹⁹.

1.2.2-jadval

Ayrim energiya manbalarining jahon energiya iste'molidagi o'rni (%)²⁰

	1985	1990	1995	2000	2005	2010
Neft	43,5	38,1	38,4	38,2	39	35,7
Tosh ko'mir	25	26,8	24,2	23,5	21,2	26,4
Tabiiy gaz	18,6	20,2	21,6	22,8	24,1	23,7
Qo'ng'ir ko'mir	4,2	3,9	3,4	2,8	2,5	2
Yadroviy energiya	2,4	4,7	6,3	6,2	6,5	5,8
Gidro energetik resurs	6,3	6,3	6,3	6,6	6,7	6,4

Ammo yuqoridagi jadval ma'lumotlariga qaraganda mazkur energiya manbalari ichida yetakchi o'rinni baribir neft mahsulotlari egallab kelmoqda va albatta mutaxasislarning tahminlariga ko'ra ham mazkur tendensiya uzoq vaqtlar saqlanib qolishi kutilmoqda.

1.2.3-jadval ma'lumotlariga qaraganda ko'mirning jahon energiya iste'molidagi ulushi eng yuqori ko'rsatkichi elektr manbalarini ishlab chiqarishda foydalaniladi, keying o'rinda esa sanoatda foydalanishi ko'rilmogda. Masalan,

¹⁹ Jadval ma'lumotlari asosida muallifning tahlili.

²⁰ BP statistical review of world energy, Verein der kohliemmporeure.

tahlil qilinayotgan davr ichida soʻnggi 6 yil ichida, koʻmirning elektr manbalarini ishlab chiqarishdagi ulushi deyarli oʻzgarmagan. Shuningdek mazkur jadval maʼlumotlariga koʻra sanoatdagi ulushi ham deyarli oʻzgarmagan, shu bilan birga mazkur jadvalda 2030 yilga ham tahmin qilinmoqda.

1.2.3-jadval

Koʻmirning jahon energiya isteʼmolidagi ulushi (%)²¹

	2004	2010	2030 (tahmin)
Elektr ishlab chiqarishda	43	44	45
Sanoatda	22	23	24
Jami	26	27	28

EIA tashkilotining taxminlariga asosan Oʻzaro Iqtisodiy Hamkorlik va Taraqqiyot Tashkilotiga (OIHTT) aʼzo mamlakatlarda 2004-2030 yillarda koʻmir isteʼmoli hajmi yillik oʻrtacha 0,9% ni tashkil etadi, 2015-2030 yillarda esa AQSh da koʻmir isteʼmoli koʻpayishi hisobiga bu koʻrsatkich 1,1% gacha koʻtariladi. Janubiy Koreya, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Meksikada koʻmir isteʼmoli darajasi oʻrtacha suratda saqlanib turadi. Sanoati rivojlangan Yevropa davlatlarida esa koʻmirda raqobatchi sifatida tabiiy gaz va atom energetikasi foydalanilmoqda.

Shuningdek kelajakdagi 20 yil ichida Germaniya, Ispaniya, Italiya, Polsha, Chexiya, Slovakiya va Turkiya davlatlaridagi koʻmirda ishlovchi eskirgan elektrostansiyalarda jadal modernizatsiya jarayonlari oʻtkazilishi rejalashtirgan.

EIA taxminlariga koʻra Indoneziya kelajakda Avstraliyani energetik koʻmir eksportida ortda qoldirishi mumkin. Buning uchun mamlakatda sera miqdori kam boʻlgan koʻmir konlari anchagina topiladi. Bu konlardan koʻmirni qazib olish ham harajat talab emas, yana Indoneziyada “Capesize” sinfidagi kemalarni qabul qila

²¹ International Energy Outlook 2012.

oluvchi portlar soni ham anachagina. 2005-2010 yillarda Indoneziya eksporti 71 mln tonnaga oshdi (125% ga). Kelajakdagi eksport hajmi ko'payishi ko'mir tarqmog'iga jalb qilinadigan investitsiyalar, transport infratuzilmasi va ekologik muammolar bilan bog'liq harajatlarga bo'g'liq.

Hozirgi vaqtda xalqaro savdodagi ko'mirning asosiy qismi energetik ko'mirga to'g'ri kelyapti. 2030-yilga kelib xalqaro savdodagi bu ko'mir ulushi 70% gacha o'sishi ham tahmin qilinmoqda. 2011-yilda Osiyo davlatlari importining 55,5% energetik ko'mirga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2030-yilda esa ushbu ko'rsatkich 60% dan ham oshishi kutilmoqda.

Mutahasislarning fikrlariga ko'ra 2030-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida AQSh, Xitoy va Hindistonda ko'mir qazib olishi ko'payishi kutilmoqda. Ko'mir bilan xalqaro savdo Avstraliya, Yangi Zelandiya, Rossiya, Osiyo va Afrika davlatlari, yana Markaziy va Janubiy Amerika davlatlari tomonidan qazib olish hajmini ko'paytirish orqali ushlab turiladi.

2011-yilda energiya tashuvchilardan foydalanish darajasiga ko'ra qo'ng'ir ko'mir ulushi 11,7% (2010-yil 10,8%), tosh ko'mirning ulushi esa 14,1% (2010-yil 13,2%) ni tashkil qilgan.

Shuningdek mutaxasislarning fikrlariga ko'ra Hindistonda 2005-yildan 2030-yilgacha bo'lgan oraliqda ko'mir eksporti ikki baravargacha oshishi mumkin. Bunga mamlakatdagi ko'mir qazib olish va uni transportirovkasi bilan bog'liq muammolarning mavjudligi bilan izohlasa bo'ladi.

SSSR parchalangach Rossiya ko'mir eksportiyori sifatida bir qancha muammolarga to'qnash keldi, ular ishlab chiqarish unumdorligining pastligi, ko'mir qazib chiqaruvchi tashkilotlarni sotilish bozorlaridan uzoqdaligi kabi. Oxirgi yillarda Rossiyada ishlab chiqarish unumdorligi o'sa boshladi va bu Rossiya eksport hajmini ortishiga olib keldi. Bundan tashqari Yevropadagi shaxtalarning yopilishi bilan ayrim bir necha Yevropa davlatlari Rossiyaning kam serali ko'mirini import qilish hajmini oshirish niyatida ekanligini bildirdi (xususan Buyuk Britaniya).

Yaponiya ko'mir mahsulotlariga bo'lgan talabini qondira olmaydi va shu sababli 2030-yilga kelib dunyodagi eng yirik ko'mir importyorlaridan biriga aylanadi. Tarixan bu davlat ko'mirni Xitoydan import qilib kelgan. Hozirgi vaqtda Yaponiya Rossiyaning ko'mir sanoatiga o'z investitsiyalarini kiritmoqda. Albatta bundan ko'zlangan asosiy maqsad kelajakda ko'mir importini diversifikatsiyalashdir.

Mazkur tahlil qilingan davlatlar ichida alohida o'rinni Xitoyning ko'mir ishlab chiqarish sanoati va ushbu tarmoqning bugungi kundagi rivojlanish tendensiyalari egallamoqda. Zero yuqorida tahlil qilib o'tgan ma'lumotlarimizga asosan Xitoy ko'mirni qazib chiqarish, eksport qilish va umuman ichki bozordagi iste'moli boshqa davlatlarga nisbatan dunyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek ayrim mutaxassislarining fikrlariga ko'ra Xitoyning ko'mir sanoatining eksport potentsiali ancha yuqori, ammo ko'plab mutaxassislar fikricha bu davlatlar kelajakda o'z ichki bozoridagi ko'mirga bo'lgan o'sib kelayotgan talabni qondirishga asosiy e'tibo'rini qaratadi. 2006-yil Xitoy eksportni rag'batlantirish maqsadida ko'mirga bo'lgan eksport bojini 6% ga tushirdi. Lekin Xitoy hukumati tezda kokslangan ko'mir olib chiqib ketish uchun 5% lik boj belgiladi va bu turdagi bojni energetik ko'mir uchun ham tadbqiq etishni mo'ljalladi. Bundan tashqari 2007-yilda Xitoy energetik ko'mirni eksporti uchun kvotalarni kamaytirdi.

Ekspertlar xulosasiga ko'ra Xitoy mintaqadagi bozorga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Xitoy ko'mir importini oshiradigan bo'lsa boshqa importyor davlatlar ko'mirni yuqorilangan bahoda sotib ololmaydilar, Xitoy eksporti kamayadigan bo'lsa ko'mir yetkazib beruvchilar o'z mahsulotini Yaponiya, Tayvan va Janubiy Koreyaga o'tkazib yubora oladilar (odatda bu davlatlar ko'mirni Xitoydan import qiladi).

Xitoy mutaxassislarining fikriga ko'ra, boshqa energotashuvchilarga nisbatan issiqlik va elektroenergiyani olish uchun ko'mirni ishlatish foydaliroq.

Mamlakatda ishlab chiqarish asosiy xududlaridan ko'mirni sharqiy qirg'oqning aholi zich joylashgan xududlarga yetkazish bo'yicha keng transport tizimi yo'lga qo'yilgan (ulardan eng yirigi – Xitoy markaziy qismidagi Shansi provinsiyasi). Xitoyda ko'mirning importi 2009 yilda milliy iste'molning kamida 3% tashkil qildi. Portlar yaqinida joylashgan metallurgiya korxonalarining ehtiyojlari asosan yuqori sifatli koks ko'mirini tashkil etadi.

Xitoyning ko'mir tarmog'i so'ngi ikki o'n yillikda qator jiddiy muammolarga yuz tutmoqda. Elektroenergiyani ishlab chiqarishda Xitoyning ko'mir sanoati ulushi 90% ni tashkil etadi, taqqoslash uchun, Yevropa mamlakatlarida elektroenergiya ishlab chiqarishdagi ko'mir ulushi o'rtacha 35% tashkil qiladi, ammo Rossiyada – faqat 16% tashkil qiladi. Hozir Yevropa bozorida ko'mirning narxi bir tonna uchun 70 dollardan ko'proqni tashkil qilmoqda.

Bundan tashqari Xitoy hukumati ko'mirdan tayyorlanadigan neftga o'xshash uglevodorodlarni ishlab chiqarishni ham rivojlantirmoqchi. 2007-yil oxirida "Shenhua Coal Liquefaction Corparatio" kompaniyasi Ichki Mongoliya hududida sutkasiga 20 ming barrel siqilgan ko'mir ishlab chiqarish quvvatiga ega zavodni qurishni rejalashtirgan. 2010-yilga kelib ushbu zavod quvvati sutkasiga 100 ming barrelga yetkazilgan. Hukumat rejalariga muvofiq 2020-yilda mamlakat hududidagi bu kabi zavodlarning quvvati 1 mln barrelga yetishi kerak, ammo ko'pchilik mutaxassislar fikricha bu ko'plab texnik va moliyaviy xavflarga ega deb hisoblanadi.

Diagramma 1.2.1.

Xitoyning energiyadan foydalanish tuzilmasi²²





Diagramma 1.2.2.

Xitoy Resurslarning asosiy turlaridan foydalanish dinamikasi²³



Xitoy zaharli gazlarni atmosferaga chiqarishi bo'yicha yetakchi o'rinlarda turadi. Xitoy iqtisodiyotining intensiv rivojlanishi, mamlakat va butun dunyo ekologiyasi uchun haqiqiy falokatga aylanmoqda. Uning oldini olish bo'yicha, bugun Xitoy xukumati zaruriy chora-tadbirlarni ishlab chiqmoqda.

²² Copyright PIN 2003-2011

²³ Copyright PIN 2003-2011

II BOB. XITOIY XALQ RESPUBLIKASINING KO`MIR SANOATIDA MAVJUD MUAOMMOLAR TO`PLAMI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO`NALISHLARI

2.1. XXR ko`mir sanoatining rivojlanish tendensiyalari va yo`nalishlari.

Xitoy Xalq Respublikasi tashkil topganidan so`ng va iqtisodiy o`sish suratlari yuqori bo`lgani bois resurslarga katta ehtiyoj sezdi. O`zining ichki, tashqi siyosatida amalga oshirgan o`zgarishlar tufayli Xitoy energetika sohasida tub islohatlarni bir necha bor amalga oshirdi. Ushbu davrni shartli ravishda ikki davrga bo`lish mumkin – 1. 1949-1978 yy va 2. 1978-2009 yy. energetik islohatlar davri.

XXR davlati tashkil topganidan boshlab ya`ni 1949-yildan barcha sohalarda tub islohatlar amalga oshirila boshlandi. Jumladan enegetika sohasidagi siyosati bu davr islohatlargacha bo`lgan davr deb ataladi.

Jahon iqtisodiyotida vujudga kelgan tartibga ko`ra Xitoy “Talabni o`z ichki resurslarimiz bilan qondiramiz” deb atalgan energetik strategiyani ishlab chiqdi. Bu vaqtda Xitoy Komunistik partiyasi uzoq davom etgan urushdan chiqqan, energetik baza kuchsiz, ishlab chiqarishni tashkilashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar, asbob-uskunalar bilan ta`minlanganlik darajasi past, kerakli mahsulotlarni toppish bo`yicha ilmiy tekshirish va razvedka ishlari ham juda kuchsiz edi.

1949-yil jami energiya resurslarini ishlab chiqarish ko`rsatichi atiga 23700 tonna ko`mirdan iborat bo`ldi va iste`mol qilinadigan energiya mahsulotlari ichida asosiysi ko`mire edi, ko`mir ishlab chiqarish ko`rsatkichi yillik 32000 ming tonna, xom neft esa 120 ming tonna edi. Ko`mirga sarflangan harajatlar jami energoresurslarga sarflangan mablag`ni 95% ni tashkil qilar edi, zero o`sha davrlarda ma`lumki butun mamlakatni ta`minlab bera oladigan elektr energiyasi mavjud emas edi.

XX asrning 50-yillarida o`z-o`zini neft mahsulotlari bilan ta`minlash koefetsenti 40% ni tashkil etdi, qolgan yarmi esa SSSR importiga bog`liq edi.

SSSR bilan a`loqalar uzilgandan so`ng Xitoy “O`z kuchiga tayanish” shiori ostida energoresurslar xavfsizligi strategiyasidan bora boshladi va “Talabni o`z ichki resurslarimiz bilan qondiramiz” prinsipiga amal qila boshladi.

1959-1962 yillarda Da tsin va G`alaba neft konlari ochildi, Xitoy neft sanoati rivojlanishi tarixida birinchi qadamlar qo`yildi. Bundan keyin Dagan Szyanxan, LyaoXe va boshqa neft konlari ham ochila boshladi, neft qazib chiqarish hajmi osha boshladi. 1963-yilda Xitoy o`z ichki talabini o`z resurslari orqali qondirishga erishdi.

1973-yildan Xitoy Yaponiya, Flippin, Ruminiyaga o`z neft mahsulotlarini eksport qila boshladi. 1985-yil neft sanoati tarixida eng ko`p neft chetga eksport qilindi, statistik ma`lumotlarga asosan shu yili Xitoy chetga 30030 ming tonna neftni eksport qildi (real eksport qilinga neft hajmi 31150 ming tonna). Iqtisodiy o`sish bilan birga mamlakatning neftga bo`lgan ichki talabi ham oshdi, xom neft qazib chiqarish va eksport hajmlari qisqardi.

“Talabni o`z ichki resurslarimiz bilan qondiramiz” energetik siyosati orqali Xitoy o`zida qudratli erergetik bazani yarata oldi va kelajakda bu uning iqtisodiy rivoji uchun asos bo`lib xizmat qildi.

1978-yildan Xitoy ochiqlik siyosatiga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy islohatlarni boshlab yubordi. Bu Xitoy iqtisodiy rivojining boshlanishi edi. 1978-yildan boshlab Xitoy turli xil energetik siyosatlarni boshlab yubordi. Ochiqlik siyosati boshlangandan boshlab Xitoy energetik strategiyasini shartli ravishda 3 boshqichga bo`lsak bo`ladi.


Birinchi bosqichdagi Xitoy energetik strategiyasini o`z ehtiyojlarini qondira oladigan davr deb atashadi, bu vaqtda ko`mir asosiy energiya manbai sifatida xizmat qilgan. 90-yillargacha Xitoy asosiy e`tibo`rini o`zining neftga bo`lgan ichki talabini qondirishga qaratdi va neft talabini kamaytirishga qaratilgan bir qancha choralarni amalga oshirdi - “Ko`mir evaziga neft” va boshqalar. Ko`mir sanoatining Xitoy energoresurslari ichidagi pozitsiyasini kuchaytirdi. Shu bilan birga neft mahsulotlari katta hajmda chetga eksport qilina boshlandi.

80-yillarda Xitoy har yili qazib olingan xom neftning deyarli yarmini eksport qildi. 1985-yil neft sanoati tarixida eng ko'p mahsulot chetga eksport qilindi, statistikaga asosan shu yili Xitoy chetga 30030 ming tonna neftni eksport qildi (real eksport qilinga neft hajmi 31150 ming tonna). Bu vaqtda Xitoy neft eksport qilishdan o'z oldiga uch maqsadni qo'ygan edi:

1) Neftni valyutaga aylantirish. Valyuta zaxirasini ko'paytirish maqsadida Den Syaopin "neftni valyutaga almashtiramiz" strategiyasini olg'a surdi. 1977-yildan 1985-yilgacha bo'lgan davrda eksport hajmi ko'payishidan tushgan jami foydani 30% neftga to'g'ri keldi. Faqatgina 1985-yildan so'nggina tekstil va boshqa sanoat tovarlarini eksport tarkibidagi ulushining ko'payishi neftning eksportdagi ulushini kamaytirdi, "neftni valyutaga almashtiramiz" strategiyasi sekin-asta kuchsizlandi.

2) Neftni texnologiyalarga almashtirish. 1978-yil 19-fevralda Yaponiya va Xitoy "Uzoq muddatli savdo kelishuvi" ni imzoladi. Kelishuvda quyidagi normalar bor edi: Do'stona kelishuv asosida Xitoy Yaponiyaga ko'mir va xom neft eksport qiladi, Yaponiya esa o'z navbatida texnologiyalar, asbob-uskunalar va qurilish materiallarini eksport qiladi. Yuqoridagi kelishuv uzoq muddatli hisoblanib ikki tomon ham har yili uchrashgan holda eksport qilinayotgan xom neft va ko'mir narxi va hajmini belgilab olishlari kerak edi. Lekin Xitoy eksportiyordan importyorga aylanib qolgach Yaponiyaga eksport qilinayotgan xom neft hajmi asta-sekin qisqarib bordi. Bu kelishuvga bog'liq hujjat 2000-yil oxirida imzolangan va kelishuv yana uzaytirilgan. Bu qo'shimcha kelishuvga muvofiq 2001-2003 yillarda Xitoy Yaponiyaga yiliga 3-4 mln tonna xom neft yetkazib berishi kerak edi.

3) Xalqaro do'stona hamkorlik va o'zaro yordam. Xitoy, Kuba va Pokiston o'rtasida realizatsiya qilinayotga neftning asosiy qismi ayriboshlash tamoyiliga asoslanadi.

Xitoy iqtisodiyotida neft mahsulotining iste'moli²⁴

Ikkinchi bosqichda (1993-2002 yillar) Xitoy enegetik strategiyasi “energiya resurslarini yetkazib berishni ta’minlash” bo’ldi. 90-yillarda Xitoyning og’ir sanoati tezlik bilan rivojlandi, bu yillarda og’ir sanoatning jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi 50% lik ko’rsatkichdan oshib ketdi, keying yillarda esa 60% dan ham oshdi, hozirgi vaqtda yuqoridagi ko’rsatkich 70% ga yaqinlashib qolgan. Og’ir sanoatning tez sur’atlarda o’sishi sanoatda foydalanilayotgan energoresurslar hajmi ko’payishiga olib keldi, oxir oqibatda esa Xitoy 1993-yilda neft eksport qiluvchi mamlakatdan uni importyoriga aylanib qoldi. Mavjud xolatga ko’ra Xitoy “Talabni o’z ichki resurslarimiz bilan qondiramiz” strategiyasidan asta-sekin chekina boshladi va energoresurslar diversifikatsiyasi strategiyasini rivojlantirishni boshlab yubordi.

1993-yilda Xitoy hukumati o’z oldiga “Uzoq muddatli davrda neft mahsulotlarini yetkazib berish kafolatlari” deb nomlangan siyosiy maqsadni o’z oldiga qo’ydi. Xitoyning aynan mana shu energetik siyosati ikkinchi bosqich xususiyatlarini o’zida aks ettiradi. Shu maqsadda Xitoyda energoresurslar sohasida

²⁴ Manba: www.cinhua.org.cn

band bo'lgan tashkilotlar o'z oldilariga “zou chu qu” (tashqariga chiqish) strategiyasini amalga oshira boshladilar.

1997-yildan boshlab Xitoyning neft kompaniyalari rivojlanishni yangi bosqichiga chiqdi. Dunyodagi qator davlatlar bilan (Sudan, Venesuela, Qozog'iston, Kanada, Tailand va h.k) neft va gaz mahsulotlarini qazib olish va boshqa turdagi kelishuvlar asosida shartnomalar tuzildi.

Uchinchi bosqichda Xitoy hukumati energetika xavfsizligi va bu sohani to'xtovsiz rivojlanib borishini ta'minlash strategiyasini boshlab yubordi.

2004-yilda XXR ning 20 ta provinsiasida turli xildagi energoresurslarni yetishmovchiligi kuzatildi. 2005-yilda Xitoydagi energoresurslar defitsiti faqatgina ko'mirning o'zida 80 mln tonnage yetdi. 2003-yildan boshlab Xitoy iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga chiqqan. Aynan shu vaqtdan boshlab Xitoy energiya resurslari importiga bog'liqligi osha boshladi. 2003-yil xom neft narxi tez suratda ko'tarilib ketdi. Jahon hamjamiyati Xitoyni dunyodagi ikkinchi raqami neft iste'molchisi sifatida qat'iy tanqid ostiga oldilar. Chunki 2004-yilda Xitoy 120 mln tonna neftni import qildi, bu esa butun jahon neft importi 6% ni tashkil qilar edi. Shu sababli g'arbdagi ayrim mutaxassislar neftga bo'lgan narxni ko'tarilishiga Xitoy aybdor deb biladilar.

2003-yildan hozirgi vaqtgacha davom yetib kelayotgan uchinchi bosqichda Xitoy “Qo'shimcha manbalarni toppish va xarajatlarni kamaytirish” strategiyasida bormoqda. Misol uchun 2004-yil iyun oyida bo'lib o'tgan XXR davlat kengashi yig'ilishida qabul qilingan “Xitoyning uzoq muddatli davrdagi energoresurslarini rivojlantirish rejasi (2004-2020)” da ko'mir sanoat asosi sifatida belgilab olindi. Xitoyning neft mahsulotlariga bo'lgan bog'liqligi oshgani sari u o'zidagi muqobil energiya manabalaridan oqilona foydalanishga, mavjud manbalarni samaradorligini oshirishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlarga ko'proq e'tibor qarata boshladi.

Xitoy Partiyalar Kengashining 2006-yil mart oyida bo'lib o'tgan 10-chaqirig'ida ham ko'mir sanoatda asosiy energoresurs sifatida yana bir bor belgilab

qo'yildi. Bu qaror XXR ijtimoiy-iqtisodiy rivojini 11-besh yillik rejasiga muvofiq tasdiqlangan bo'lib, tabiatni muxofaza qilish, energoresurslar borasida ilmiy tadqiqot ishlarini jadallashtirish kabi yana bir qancha punktlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda Xitoyning ko'mirni eksport qilish ko'rsatkichlari ancha past ko'rsatkichlarni namoyish qilmoqda (2.1.1-jadval).

2.1.1-Jadval

Xitoyda ko'miri qazib chiqarish, eksport qilish va import qilish ko'rsatkichlari (mln. tonna)²⁵

	2000	2002	2004	2006	2008	2009
Qazib chiqarish	998	1455	1992	2382	2793	3050
Eksport ko'rsatkichi	55	84	87	63	45	22
Import ko'rsatkichi	2	11	19	38	40	126

2.1.1.-Jadval ma'lumotlariga ko'ra so'nggi yillarda Xitoyda ko'mirning qazib chiqarilishi yildan-yilga oshib borishi tendensiyalari kuzatilgan. Masalan mazkur ko'rsatkich 2000 yilda 998 mln. tonnani tashkil etgan bo'lsa ushbu ko'rsatkich 2002 yilda 1455 mln. tonnani tashkil etgan, 2004 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 1992 mln. tonnani, 2006 yilda 2382 mln. tonnani, 2008 yilda 2793 mln. tonnani va 2009 yil ma'lumotlariga ko'ra 3050 mln. tonnani tashkil etgan. Umuman olganda tahlil qilinayotgan davr o'raliqida osish ko'rsatkichi 2052 mln. tonnani tashkil etgan.

O'z navbatida mazkur hom-ashening eksport ko'rsatkichi barqaror rivojlanish tendensiyalari kuzatilmaydi. Chunki tahlil qiladigan bo'lsak 2000 yilda eksport ko'rsatkichi 55 mln. tonnani tashkil etgan bo'lsa 2009 yilga kelib mazkur ko'rsatkich 22 mln. tonnani tashkil etgan. Ammo tahlil qilish davr oralig'ida

²⁵ Томберг Р. Основные черты энергетической стратегии КНР // Мировая экономика и международные отношения. 2011. №5. стр.66.

eksportning ancha o'sish tendensiyalari ham kuzatilinadi. Masalan ko'mirning eng yuqori o'sish choqqisi 2004 yilda kuzatilgan bo'lib ushbu ko'rsatkich 87 mln. tonnani tashkil etgan, ushbu davrdan so'ng pasaib borish tendensiyalari kuzatilgan.

XX asr oxirlaridagi iqtisodiy o'sishdan so'ng XXR iqtisodiyoti yangi asr boshida yanada jadalroq rivojlana boshladi. XXR Davlat statistik agentligi bergan ma'lumotlarga asosan 2001-2007 yillarda Xitoy iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi yillik o'rtacha 10% lik ko'rsatkichdan balandroq. 2008-yilda XXR YaIM si 3860 mlrd dollarga yetdi, xatto 2008-2009 yillarda ham butun jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham Xitoy iqtisodiy rivojlanish darajasi 9-8% lik darajadan pastga tushmadi.

Xitoy iqtisodiyoti rivojlanib borgani sari undagi neft, ko'mir va boshqa turdagi energoresurslarga bo'lgan talab oshib boraveradi. Natijada Xitoy o'z iqtisodiyoti uchun energetik xafsizlikni ta'minashi lozim bo'lib qoladi.

Shu bois bugungi kunda Xitoy ko'mir qazib chiqarish sanoatini ham maksimal darajada rivojlantirishni rejalashtirgan. Joriy besh yillik oxirigacha Xitoyda sohadagi kompaniyalarni birlashtirish orqali quvvatining har biri yiliga 100 mln tonna ko'mir qzib chiqarishga yetadigan 10 ta kompaniyani tashkil qilish rejalashtirilgan. Natijada bu yangi tashkil etilgan yirik korxonalarga mamlakat hududidagi ko'mir qazib chiqarishni 90% to'g'ri keladi. Xitoy hukumati rejalariga muvofiq ko'mir sanoatini restuktruzizatsiyasi jahondagi ko'mir narxlarini oshish tendensiyasiga yaxshi ta'sir o'tkazadi. "China Mining" ma'lumotlariga ko'ra 2011-yil mart oyi oxirida ko'mir narxi 120 dollar/tonnani tashkil etdi. Bu esa o'z navbatida ko'mir bahosini 3/1 qismga oshganini ko'rsatadi (90 dollar/tonnani). 2010-yilda XXR 146 mln tonna ko'mir import qilgan). Jahon bozorida narx oshgani bois Xitoyning ichki bozorida ham narxlar oshib bormoqda, hozir Xitoyda ko'mir bahosi o'tgan yili dekabr oyidan beri eng yuqori narxlarda turibdi.

2.2. Xitoy Xalq Respublikasining ko`mir sanoatida mavjud muammolar to`plami

Ma'lumki bugungi kunda Xitoy jahondagi eng yirik ko`mir ishlab chiqaruvchi va iste'mol qiluvchi davlat hisoblanadi. National Bureau of Statistics ma'lumotlariga ko`ra 2010-yil fevral oyida mamlakatda 210 mln. tonna ko`mir ishlab chiqarilgan, bu ko`rsatkich 2009-yil fevral oyidagidan 11,9% ga ko`proqdir. Faqatgina 2010-yilning yanvar-fevral oylarida o'tgan yili shu vaqtdagiga qaraganda 30,5% ga ko`p miqdorda ko`mir ishlab chiqarilgan va uning umumiy hajmi 470 mln. tonnani tashkil qilgan.

2010-yilning birinchi ikki oyi oxirida Xitoyning Milliy Rivojlanish va Islohotlar Komissiyasining (National Development and Reform Commission - NDRC) ma'lumotlariga ko`ra Xitoy ko`mir importi 3,7 marta, ya'ni 29,185 mln. tonnaga oshdi va eksport 32,7% ga ya'ni 3,438 mln tonnagacha kamaydi. Shunday qilib ko`mirning netto-importi 25,747 mln. tonnani tashkil qildi. Lekin mart-may oylarida an'anaviy ravishda ko`mirga bo`lgan talab kamayadi, ichki bozorda ko`mir narxi tushadi bu esa ko`mir importiga bo`lgan ehtiyojni ham kamayishiga olib kelishi mumkin.


Xitoyning ko`mir qazib chiqaruvchi kompaniyalarini ommaviy ravishda birlashuvi mazkur yildan boshlanadi. Bu birlashuvlar ko`lami haqida birgina vilotlarda amalaga oshiriladigan ishlar haqida ham tasurotga ega bo`lsak bo`ladi masalan, Shensi provinsiyasidagi ko`mir sanoatida faoliyat yuritayotgan tashkilotlar soni yaqin yillarda 80% ga qisqarishi kerak (522 tadan 120 ta ga), ichki Mongoliya avtonom hududidagi tashkilotlar uchun bozorga kirish chegarasi yiliga 1,2 mln. tonna ko`mir qazib chiqarish qilib belgilanadi. Bu islohatlar asosan Xitoyning 4 ta ko`mir qazib chiqaruvchi provinsiyalari Shansi, Shandun, Shensi, Guychjou va ichki Mongoliya Avtonom Respublikasini qamrab oladi.

Xitoyning Erdos shahrida (Ichki Mongoliya) davlatning energetik konserni "Shenhua" to`g`ri gidrirovka qilish yo`li bilan ko`mirni siquvchi zavod qurishni olib borilmoqda. Bu zavodning dastlabki quvvati 1 mln. tonna, 2030-yilga kelib

esa ushbu ko'rsatkich 30 mln. tonnaga chiqadi. Yaqin yillarda shu turdagi korxonalarni "Joint Ventures", "Sasol" va "Shell" kompaniyalari bilan qurish rejalashtirilgan.

2.2.1-rasm.

Xitoy iqtisodiyotida tarmoqlar bo'yicha energiya yoqilg'ilarining iste'moli²⁶.



XXR tomonidan amalga oshirilishi rejalashtirilayotgan bu islohatlar kelajakda po'lat eritish bo'yicha harajatlarni ham kamaytirishi mo'ljallangan. Natijada esa Xitoy jahon bozoriga o'z metalini raqobatbardosh holatda olib kiradi.


Xitoyga ko'mir yetkazib beruvchi davlatlar asosan Indoneziya va Avstraliya hisoblanadi. Bu davlatlarga 2010-yil yanvar-fevral xolatiga ko'ra Xitoyga import qilingan jami ko'mirning 71% to'g'ri kelgan. Indoneziyadan ko'mir yetkazib berish 12,5 mln tonna ya'ni 7,1 martaga, Avstraliyadan esa 8,3 mln tonna ya'ni 4,7 martagacha oshgan. Xitoyga ko'mir eksport qiluvchi davlatlar ichida 4-o'rinni egallagan Rossiyaning esa 2 oy davomidagi Xitoyga ko'mir eksporti hajmi 4,7 baravarga ya'ni 1,63 mln tonnaga ko'payganini ko'rishimiz mumkin (Xitoy bojxona statistikasi ma'lumotlariga asosan). National Energy

²⁶ Manba: China National Bureau of statistics

Board taxminlariga ko`ra 2010-yil Xitoyda 3,15 mlrd tonna ko`mir qazib olinadi, netto import esa 100 mln tonnadan oshadi. China Coal Transportation taxminlariga ko`ra Xitoy 2020-yilgacha ko`mir importyori sifatida qoladi. Shunga qaramay 2010-yilda ko`mir importi hajmi qisqarishi kutilyapti. Shanxi Coking Coal Group joriy yilning boshlarida ko`mir narxi oshadi, keyinchalik esa yuqori narxlarda stabillashadi. Bu joriy yilning ikkinchi yarmida yangi ko`mir qazib chiqarish quvvatlarini ishga tushirilishi bilan bog`liq. Coking Coal Group 2010-yil Xitoyda ko`mir qazib chiqarilishi hajmini 3,3 mlrd tonna (o`shish 10%) deb baholadi, import esa o`z navbatida 2009-yildagiga ko`ra kamayadi. Guruh taxminlariga ko`ra 2010-yildagi import hajmi 80 mln tonnani tashkil qilib, eksport 30 mln lik ko`rsatkichda qoladi.

2.2.2-rasm.

2012 yil holatiga Xitoy energiya turlari bo`yicha iste`moli²⁷.



²⁷ Manba: EIA International Energy Statistics 2013.


Xitoy ko`mir qazib olish bo`yicha dunyoda birinchi (2007-yil 2537 mlrd tonna), eksporti bo`yicha esa uchinchi o`rinda turadi. Ko`mir sanoati Xitoyni sanoatlashishida muhim o`rin egallaydi. Lekin Xitoy ko`mir sanoati dunyoning boshqa ko`mir qazib chiqaruvchi davlatlaridan ko`ra samarasizroq faoliyat yuritadi. Ishlab chiqarish unumdorligi AQSh da 12 ming tonna 1 ishchiga tog`ri kelsa, Avstraliyada 11 ming tonna 1 ishchiga tog`ri keladi va mazkur ko`rsatkich Xitoyda 187 tonna 1 ishchiga to`g`ri keladi.

Xitoyda ko`mir sanoati sohasi endi modernizatsiya va rekonstruksiya qilina boshlandi. Ko`mir qazib olishda eski, xavfli usullar va shaxtalardan foydalaniladi, har yili birgina gaz saqlanishining buzilishi oqibatida 6 ming odam shaxtalarda halok bo`ladi. Xitoyda ko`mir asosan kichik shaxtalardan qazib olinadi, bu jihati bilan Xitoy ko`mir sanoati Yevropa va Avstraliya ko`mir sanoatidan tubdan farq qiladi. Sohani tubdan isloh qilish uchun mamlakatda kapital va yuqori malakali ishchi kuchi yetishmaydi.

Xitoyning 1-chorak bo`yicha ko`mir eksporti muaommoliligicha qolmoqda, barcha kutishlarga ko`ra jahon bozoridagi ko`mirlarga bo`lgan talab tushishda davom etadi. Ma`lumki Xitoyning Shensi provinsiyasi 2012-yilda 6,32 mln. tonna ko`mirni eksport qilgan bu esa 2011-yilga nisbatan 15,4% ga kamdir. Bu kamayish jahon moliya inqirozi va Janubiy Xitoydagi ob-havo o`zgarishlari tufayli sodir bo`ldi.

Xitoy ko`mir zahiralarini bo`yicha dunyoda 3-o`rinni egallaydi, bu esa ko`mir sanoatini rivojlantirish uchun qulaylik degani. Ko`mir Xitoy energiya zahiralarini 90% ni tashkil qiladi va ushbu zahiralar Xitoyni kelajak 70 yil ichida ko`mir bilan ta`minlab bera oladi.

Ko`mir konlari Xitoyning birinchi tartibdagi barcha ma`muriy hududiy birliklarida mavjud (Shanxaydan tashqari). Kam serali yirik ko`mir basseyini Shansi, Shensi provinsiyasi va Ichki Mongoliya avtanom rayonlarida joylashgan.

2011-2017 yillarda Xitoyning ko'mir importi hajmi²⁸

Kokslanadigan ko'mir miqdori ham yetarlicha. Ichki Mongoliya jami 10 mlrd tonnadan ko'proq zahiraga ega bo'lgan bir necha konlar topilgan. Eng yirik kon Shansi provinsiyasining Dantun shahri yaqinida joylashgan (yiliga 270 mln tonna ko'mir qazib olinadi).

1980-yillarda yangi yirik shaxtalar qurilishi boshlab yuborildi. Ko'mir qazib olinishi hajmi Xitoyning ichki ehtiyojlarini to'liq qoplaydi. Eksport asosan mintaqaviylik kasb etgan bo'lib, bu sohadagi Xitoyning asosiy hamkorlari Janubiy Koreya va Yaponiya hisoblanadi.

Import qilinadigan ko'mirning katta qismi AQSh dan keltiriladigan kokslangan ko'mir hisoblandi. Bu turdagi ko'mirga Xitoyda yildan yilga talab oshib bormoqda. Xitoy dunyodagi eng yirik ko'mir briketlar ishlab chiqaruvchi davlat hisoblanadi (dunyoda jami ishlab chiqariladigan ko'mir breketlarning 80%).

²⁸ Manba; China coal research 2012. (2014-2017 yillar uchun tahmin qilingan).

Ko`mir iste`moli bo`yicha Xitoy jahonda 1-o`rinni egallaydi. Xitoyda ko`mir iste`moli quyidagicha taqsimlangan: elektroenergetika – 40%, qayta ishlovchi sanoat – 30%, kokslovchi batareyalarga – 15%, qishloq xo`jaligiga – 2%, transport – 1% va boshqalarga – 12%.

Taxminlarga ko`ra Xitoy ko`mir iste`moli oshib boradi, lekin ancha kam ko`rsatkichlar bilan. Ko`mir iste`moli hajmini ortib borishi Xitoyning koks va energetik ko`mir importi hajmini oshishiga olib keladi, Xitoyning ko`mir sanoati istiqbollari sohani modernizatsiyasi va restruktruzatsiyasiga bog`liq.

Modernizatsiya va restruktruzatsiya natijalariga ko`ra yiliga 50 mln tonna ko`mir qazib chiqarish quvvatiga ega bo`lgan tashkilotlar vujudga keladi va shaxta+alyuminiy ishlab chiqarish korxonasi; shaxta+kimyo korxonasi; shaxta+qurilish sanoati tashkiloti; shaxta+koks batareyalari; shaxta+ko`mir gazifikatsiyasi kabi integratsiyalashgan tizimlar shakllantiriladi. Restruktruzatsiya kichik shaxtalarni tugatishni ko`zda tutgan shu shababli restruktruzatsiya boshlanishida ko`mir qazib chiqarilishi hajmi qisqarishi mumkin. Bu qisqarish o`sib borayotgan import orqali qoplanadi.

Xitoy ko`mir sanoatidagi asosiy kamchiliklardan biri bu transport infrastrukturasi yetarlicha shakllantirilmaganligidadir. Hozirgi vaqtda temir yo`l bor quvvatidan ham oshiqroq faoliyat yuritmoqda. Ko`mir qazib olishni yoqilg`i-energetik va boshqa turdagi xom ashyolarga boy bo`lgan shimoliy g`arb va g`arbgacha siljishi bu hududda yangi temir tizimini barpo qilish ehtiyojini tug`dirmoqda. Bu yo`l yo`lovchilar uchun mo`ljallanmoqda, eski yo`l esa faqatgina xom ashyo mahsulotlarini tashishga moslashtiriladi. Yangi temir yo`lni ishga tushirilishi keying 10 yillik boshiga belgilangan.

Rivojlanib borayotgan Xitoy iqtisodi ko`mir iste`molini ko`paytirishi mamlakatdagi import ko`mirni qabul qiluvchi portlarni ham ko`paytirishga va modernizatsiya qilishga olib keladi. Hozir Xitoyda Yevropa davlatlarida yaratilgani kabi infrastruktura mavjud emas.

Xitoyning quyidagi portlarida ko`mir terminallari mavjud:

- Xubey provinsiyasi;
- Lyaodun qo'ltig'idagi Tsixuando;
- Sariq dengizda.

2006-yil ishga tushgan 65 mln. tonna ko'mir o'tkazish quvvatiga ega bo'lgan terminal, Shandun provinsiyasi Sindao shahri Sariq dengiz qirg'og'ida joylashgan port. Xebey va Shandun pravinsiyalarida yana oltita ko'mir portlari qurilishi rejalashtirilgan, yana mavjudlarini kengaytirish ham rejalari mavjud. Misol uchun Tsixuando porti yuk aylanmasini 3 baravarga oshirish ya'ni 193 mln. tonnaga ko'tarish rejalashtirilgan.

Xitoy ko'mir sanoati arzon ishchi kuchi hisobiga chet el investorlari uchun juda jozibali hisoblanadi. AQSH fondlari xususan nafaqa fondlari Xitoy ko'mir sanoatiga o'z investitsiyalarini kiritmoqdalar. AQSH lik investorlar modernizatsiya jarayonlarida ham to'g'ridan to'g'ri, ham sheriklik asosida ishtirok etmoqdalar. Yaponiya va Niderlandiya, Ichki Mongoliyada yangi shaxtalar qurilishiga moddiy ko'mak jo'natyapti.

Xitoy hukumati xabariga ko'ra 2013-yil Xitoy ko'mir shaxtalarida 1049 ta odam xalok bo'lgan (2012-yil 1384, 2011-yilda 1973). Bu ko'rsatkich 2012-yildagiga qaraganda 24% ga kamroq.

Xitoy dunyodagi 1-raqamli ko'mir iste'molchisi bo'lgani holda undagi tog' kon sanoatida texnik xavfsizlik choralari yetarlicha ta'minlanmagan. Oxirgi yillarda XXR hukunati kam samarali kichik ko'mir shaxtalarini yopib tashlagan, bu chora shaxtalarda ishlayotgan ishchilarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlardan hisoblanadi.

Xitoy mehnat xavfsizligi ispeksiya xabariga ko'ra ko'mir qazib olish kombinatlaridagi falokat oqibatida halok bo'layotganlar soni yildan yilga qisqarib bormoqda. Lekin ayrim tashkilotlar xabariga ko'ra kombinatlar tomonidan berilgan ma'lumotlar ishonarli emas va halok bo'lganlar soni statistik ma'lumotdagidan ko'proqdir.

2013-yil dekabr oyida G`arbiy SinZyian Baiyanggou ko`mir shaxtasida yuz bergan portlashda 21 ta odam xalok bo`ldi. Shuningdek 2013-yil may oyida janubiy g`arbiy Sichuan va Guychjou provinsiyalarida 2 ta portlash natijasida umumiy xisobda 49 ta odam xalok bo`lgan.

Xitoyning ko`mir sanoati 2013-yilda katta yo`qotishlarga uchradi. Turli loyihalarga ajratiladigan investitsiyalar hajmi qisqargani bois ko`mirga bo`lgan talab hajmi tushib ketdi.

Shensi Sian provinsiyasida ko`mir qazib chiqarish uskunalarini masofadan turib boshqarish imkonini beruvchi loyihalar amaliyoti boshlandi. Bu loyiha orqali ko`mir qazib chiqarish uskunolari sohasida inqilobiy rivojlanishga erishish mo`ljallangan.

Yuqoridagi texnologiyalar ko`mir qazib chiqaruvchi kombaynlarni on-layn tarzda nazorat qilish, texnik tashxis va boshqarish imkonini beradi. Texnik taraqqiyot bir necha rivojlangan davlatlarda ko`mir qazib chiqarish samaradorligini sezilarli oshirdi, baxtsiz xodisa va qurbonlar sonini kamaytirdi.

Xitoy o`z ko`mir sanoatini modernizatsiya qilish bilan bir vaqtning o`zida chet davllarining ko`mir sanoatini ham invistetsiya kiritish va ko`mir aktivlarini sotib orqali rivojlantirmoqda. Bu orqali Xitoy ko`mir importini boshqa davlatlarda unga tegishli bo`lgan ko`mirlarni olib kirish orqali almashtiradi. Bu Xitoyni energiya tashuvchilar importiga bo`lgan siyosati asosiga aylandi. Xitoy Pokistonning janubida yiliga 1 mln tonnagacha ko`mir qazib chiqariladigan ko`mir shaxtasini qurilishida ishtirok etmoqchi. Bu turdagi rejalar boshqa davlatlarga nisbatan ham tuzilgan, xususan Xitoy Mongoliya, Vyetnam, Indonezyiya, Avstraliya va bir qator Afrikadagi davlatlardan ham ko`mir aktivlarini sotib olgan. Modernizatsiyadan so`ng Xitoy ko`mir sanoati jahon energetikasining muhim bir qismiga aylanadi.

Yana bir asosiy muammolardan biri bu aksariyat ko`mir sanoati korxonalarining restrukturizatsiya qilinishidadir. 2009-yilda Xitoy ko`mir qazib chiqaruvchi tashkilotlarni birlashtirish va restuktrizatsiya qilishni rag`batlantiradi.

Bu haqda taraqqiyot va islohatlar davlat qo'mitasinig raisi o'rinbosari, energetika ishlari bo'yicha davlat boshqarmasi boshlig'i Chjan Gobao ishchilarning butun Xitoy kengashida ma'lum qildi.

Uning so'zlariga qaraganda Xitoy ko'mir resurslariga boy. Ko'mir zaxiralari hajmi bo'yicha 3-o'rinda, iste'moli bo'yicha esa 1-o'rinda. 2002-yildan mamlakatda ko'mir qazib chiqarish hajmi yiliga 200 mln tonnadan oshgan, o'rtacha o'sish ko'rsatkichi yiliga 11% ni tashkil etgan. Ko'mir sanoati Xitoyni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu bilan birga Chjan Gobao ko'mir sanoatining taraqqiyot yo'lida mavjud bo'lgan ekstensiv rivojlanish, ko'p sonli kichik shaxtalar, ishlab chiqarishdagi xavfsizlik muammolari, atrof-muxit himoyasi va ko'mir ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan muammolar haqida ham alohida to'xtalib o'tdi. Chjan Gobao sohadagi ko'mir ishlab chiqarish hajmining katta qismini kichik tashkilotlarni restuktrizatsiya qilish va tugatish yo'li bilan yirik ko'mir bazalarini tashkil qilish va ularning mamlakatdagi yalpi ko'mir ishlab chiqarishdagi ulushini oshirishga qaratilgan choralarni tezlashtirishni ta'kidlab o'tdi.

2.3. Xitoy Xalq Respublikasi va O'zbekiston respublikasining ko'mi sanoatidagi hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari


Ma'lumki O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasida asrlar davomida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanib kelinmoqda. Ushbu aloqalar yildan-yilga tobora yonalish turlari, sohalari va hajmi jihatidan faqat ortib bormoqda. O'zbekiston uchun Xitoy bugungi kunda asosiy va ishonchli investorlardan biri hisoblanadi (Diagramma-2.3.1).

O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasida bugungi kunda yoqilg'i energetika tarmoqlarida ham keng qamrovli ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan va yildan-yilga rivojlanib bormoqda, neft-gaz, ko'mir sanoti shular jumlasidandir.

Mazkur tarmoqlar ichida ko'mir sanoati tarmoqi bo'yicha ham mustahkam ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan bo'lib, ular bugungi kunda tobora rivojlanish jarayonidadir.

Diagramma-2.3.1. 1995-2010 yy.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi tovar aylanmasi (mln. AQSh dollari)²⁹



Birgina misol, Xitoyning China Coal Technology & Engineering Group (CCTEG) O'zbekistonni OAO "Uzbekugol" bilan Surxondaryodagi ko'mir qazib chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha 88,5 mln. dollarlik shartnoma imzolandi.

Xitoy kompaniyasi Boysun va Shatg'un toshko'mir konlaridagi ko'mir qazib olish texnologiyalarini almashtiradi. Xususan, CCTEG har biri yiliga 450 ming tonna ko'mir qazib chiqaruvchi mexanizatsiyalashgan komplekslarni "kalit osti(под ключ)" yetkazib beradi. Loyihada ko'mir transportirovkasini ham modernizatsiya qilish ko'zda tutilgan.

Birinchi kompleksni ishga tushirish muddati 2015-yil, ikkinchisiniki esa 2016-yil. Uskanalarni yetkazib berish shu yilning uchunchi choragida boshlanishi mumkin. Shartnoma CCTEG g'olib deb topilgan 2013-yil iyunda o'tkazilgan tender natijalari asosida imzolandi.

²⁹ Manbaa: O'zbekiston Davlat Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Umumiy qiymati 101,3 mln. dollarga teng loyiha Xitoyning EKSIM banki tomonidan ajratilgan 89,5 mln. dollarlik kredit va tashkilotning o'zini mablag'i hisoblanadigan 11,8 mln dollar bilan moliyalashtiriladi.

Soha mutaxasislari fikricha konlarni modernizatsiyasi va xom ashyo bazasining kengayishi natijasida O'zbekistonda toshko'mir qazib chiqarilishi hajmi 2013-yildan farqli ravishda (20 ming tonna), 2020-yilga borib 900 ming tonnagacha ko'payadi.

Loyiha operatori umumiy zahirasi 45,8 mln. tonna toshko'mir deb hisoblanadigan Boysun va Sharg'un konlaridan foydalanish litsenziyasiga ega OAO "Sharg'un ko'mir" hisoblanadi. OAO "Sharg'un ko'mir" ustav kapitalining 51% davlatga, 41,57% OAO "O'zbek ko'mir" ga va qolgan 7,43% mehnat kollektiviga tegishli.

O'zbekistonda 1832,8 million tonna aniqlangan ko'mir zaxirasi mavjud. Angren, Sharg'un va Boysun konlarida yiliga qariyb 4 million tonna ko'mir qazib olinmoqda³⁰.

Zamonaviy tog'-kon transport texnikasidan foydalanish, ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, texnik qayta jihozlash hisobidan ko'mir qazib olish hajmini oshirish shunday yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Avvalroq, 2013-2018 yillarda O'zbekiston ko'mir sanoati korxonalarini qayta qurollantirish va ularning barqaror rivojlanishini ta'minlash bo'yicha 2013 yil 6 iyunida Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarori asosida, umumiy qiymati 555,2 mln. dollar bo'lgan 9 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan³¹.

Umuman, bir butun iqtisodiyotdagi raqobatbardoshlikni oshirishning hal qiluvchi omili kabi, muayyan bir bozorda alohida tovar ishlab chiqaruvchilar uchun ham milliy ishlab chiqarishga ijobiy muhit va muvaffaqiyatli zamin

³⁰ <http://uza.uz/oz/business/32426/>


³¹ <http://kun.uz/2013/09/09/coal/>

yaratuvchi yoqilg'i-energetika resurslarining mavjud bo'lishi zaruriy shart hisoblanadi. Biroq, jahon tajribasining ko'rsatishicha, turli mamlakatlarda bir vaqtning o'zida bir xildagi xom ashyo ta'minoti va energetika infratuzilmasi sharoitlari yuzaga kelgan taqdirda ham, resurslardan foydalanish dinamikasi va samarasi yuqoriroq bo'lgan mamlakatgina, milliy raqobat afzalliklariga ega bo'la oladi.

O'zbekiston yoqilg'i-energetika resurslarining juda katta zaxirasiga va rivojlangan energetika infratuzilmasiga ega. Hozirgi kunda mamlakatda ko'mir sanoatini rivojlantirishga doir qator milliy hamda sohaga doir boshqa loyihalar, jumladan "2001-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi energetikasida elektr energiyasini ishlab chiqaradigan quvvatlarni rivojlantirish va rekonstruksiya qilish dasturi" va "2002-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi ko'mir sanoatini rivojlantirish dasturi" ishlab chiqilib, amalga oshirilmoqda.

Diagramma-2.3.2.

O'zbekistonda energiya resurslarining ulushi³²



2014-yil 1-yanvar xolatiga ko'ra O'zbekistonning ko'mir sanoati sohasida bandlarning umumiy soni 7396 kishi, shundan 6455 tasi OAO "O'zbek ko'mir" da,

³² O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

341 tasi OAO “Sharg’un ko`mir” da, 252 tasi OOO “Apartak” da faoliyat yuritadi. Ulardan 5924 tasi ishchi hisoblanib, 5229 tasi OAO “O`zbek ko`mir” da, 259 tasi OAO “Sharg’un ko`mir” da, 193 tasi OOO “Apartak” da ishlaydi³³.

Xitoy ko`mir assotsiatsiyasi ma`lumotiga ko`ra 2013-yil yanvar iyul holati bo`yicha ko`mir sotilishi hajmi kamaygan. Shu bilan birga bu sohaning foydalilik darajasi ham tushgan.

Mavjud ma`lumotlarga asosan 2013-yil yanvar iyul holati bo`yicha Xitoyda 2 mlrd 130 mln tonna ko`mir qazib olingan va shundan 2 mlrd 70 mln tonnasi sotilgan. Bu ikki ko`rsatkich 2012-yilning shu davriga nisbatan 3,5 va 3,9%ga tushgan.

2013-yilda Xitoy ko`mir sanoati assotsiayasi xabariga ko`ra Xitoy ko`mir sanoatidagi ahvol 2012-yildagiga nisbatan yomonroq. 2013-yilda ko`mir qazib chiqarish va unga talab hajmi qisqargan. Ko`mir sanoatida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning samaradorligi hajmi ham qisqargan.

Soha assotsiayasi ma`lumotlariga asosan ko`mir sanoatidagi yirik va o`rtacha hajmdagi korxonalar foydasi 2013-yilda 2012-yildagiga nisbatan 43,3%ga qisqargan. Xususan yirik kompaniyalar daromad hajmi 40,8%ga qisqarib 24 ta kompaniya hatto zarar ham ko`rgan. Xeyluntzsyen, Tszilin, Sichuan, Yunnan, Anxoy, Tszyansi provinsiyalaridagi ko`mir sanoati va Chuntsin shahridagi ko`mir kompaniyalarining daromadi harajatlardan kam bo`lgan.

Ko`mirga bo`lgan talabning tushishi asosan Xitoy sanoat kompaniyalarida elektr sarfi hajmining kamayishi va mamlakatdagi sanoat mahsulotlariga bo`lgan talab hajmining qisqarishi sabab bo`lganligi ta`kidlanmoqda. 2013-yil o`rtalarida Xitoy iqtisodiyotida kuzatilgan o`sish tendensiyasi ko`mir omborlarida yig`ilib qolgan zahirani kamayishiga ta`sir ko`rsatgan bo`lsa ham uning qazib chiqarilish hajmi ortmagan.

Ko`mir sanoatida yuqorida keltirilgan iqtisodiy pasayishga qaramasdan yaqin yillar ichida ko`mirning Xitoydagi birinchi raqamli energiya manbai

³³ www.UzReport.uz

sifatidagi o`rni yo`qolmaydi. Xitoyda ishlab chiqariladigan elektrning 50% ko`mir hisobiga to`g`ri keladi.

2013 yilning 6 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi “2013-2018 yillar davrida ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda uni muvozanatli rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida” Qaror qabul qildi³⁴.

Mazkur qaror iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ko'mir mahsulotlariga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish, resurs bazasini kengaytirish, kon ishlarini olib borish xavfsizligini ta'minlash, tarmoq korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash hisobiga ko'mir sanoatini yanada barqaror va muvozanatli rivojlantirish maqsadida qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi hamda Moliya vazirligi va Davlat geologiya qo'mitasi bilan birgalikda ishlab chiqilgan “2013-2018 yillar davrida ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda uni muvozanatli rivojlantirish dasturi” ma'qullandi.

Dastur 2013-2018 yillar davrida ko'mir tarmog'i korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash investitsiya loyihalari, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo'mitasi korxonalari tomonidan bajariladigan ko'mir qazib olish uchun geologiya-qidiruv ishlarining prognoz parametrlari, shuningdek «Angren» koni yon devorlarining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bo'yicha birinchi navbatdagi tadbirlari va 2013-2018 yillar davrida ko'mir tarmog'i korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash rejasi, kon yuzasini ochish, ko'mir qazib olish shu jumladan ochiq va yer osti usullari bilan ko'mir qazib olish, shuningdek qo'shimcha foydali qazilmalarni qazib olish hajmlarining maqsadli parametrlarini ta'minlash nazarda tutadi. Jumladan, shu davr

³⁴ www.UzReport.uz

mobaynida sohada mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish jami 438,0 mln. AQSH dollari ajratildi, undan ko'mir sanoatini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash Fondi hisobidan 67,3 mln. AQSH dollari, tijorat banklari kreditlari hisobidan esa 370,7 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' belgilandi. 2013-2018 yillar davrida ko'mir tarmog'i korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash rejasiga ko'ra esa soha yo'nalishlari bo'yicha jami 240 ta magistrant, 258 ta bakalavr, 1899 ta o'rta maxsus bilim yurti bitiruvchilar tayyorlanishi ko'zda tutilmoqda.

Ushbu mablag'ning katta qismi, ya'ni 438 million dollari ko'mir qazib olish korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Jumladan, "Sharg'un ko'mir" ochiq aksiyadorlik jamiyati korxonalarini yangilash, texnika va maxsus uskunalar xarid qilish uchun 334 million dollardan ortiq mablag' ajratiladi.

Investitsiya loyihalari amalga oshirilishi ustidan amaliy nazoratni, dastur bajarilishi monito'ringini va maqsadli parametrlarga o'z vaqtida erishishni ta'minlash maqsadida idoralararo guruh tashkil etildi. Quyidagilar dastur amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha idoralararo guruhning asosiy vazifalari yetib belgilandi:

- ishlab chiqarishning texnik darajasi va samaradorligini oshirish, zamonaviy yuqori samarali texnologiyalarni va boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish, ko'mir tarmog'ida ishlab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangilarini qurishga yo'naltirilgan ustuvor investitsiya loyihalari o'z vaqtida amalga oshirilishiga ko'maklashish;

- «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyatining samarali ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, moliyaviy va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek ko'mir tarmog'i korxonalarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash;

- kon ishlarini olib borishda sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

– o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda ko'mir tarmog'ini muvozanatli rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlari bilan bog'liqlikda kon yuzasini ochish va ko'mir qazib olish bo'yicha maqsadli parametrlarga har yili erishish. Shuningdek, qarorda «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyati, «O'zog'irneftgazkimyoloyiha» instituti, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, «Ko'mirloyiha» mas'uliyati cheklangan jamiyat shuningdek manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda loyiha hujjatlari o'z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi va tasdiqlanishini, hamda ushbu qarorga kiritilgan loyihalar amalga oshirilishini ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Mazkur loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun, zarurat bo'lganda, yyetakchi xorijiy ixtisoslashtirilgan loyiha institutlarini jalb etilishi «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyatiga ushbu qarorga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kon transporti va texnologik asbob-uskunalar, avtotransport, texnika, ehtiyot qismlar va materiallar sotib olish uchun tanlov asosida aniqlangan ishlab chiqaruvchi zavodlar yoki ularning rasmiy dillerlari bilan, yuklashdan oldin tekshirish o'tkazish sharti bilan, istisno tariqasida, to'g'ridan-to'g'ri kontraktlar tuzishga ruxsat berildi.

Bundan tashqari, ko'mir tarmog'ini texnik jihatdan qayta jihozlash va modernizatsiyalash jamg'armasining mablag'lari, «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyatining o'z mablag'lari hamda tijorat banklarining kreditlari Dasturni amalga oshirishni moliyalashtirish manbalari yetib belgilandi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi har yili O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini shakllantirishda qarorga nazarda tutilgan investitsiya loyihalari unga kiritilishini ta'minlaydilar.

Ko'mir sanoati mamlakatimiz energetika tarmog'ida yyetakchi o'rinlardan birini egallaydi. So'nggi yillarda tarmoqda ko'mir qazib olish va sotish hajmi barqaror ravishda oshmoqda, asosiy iqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlar o'sib bormoqda.

O'zbekistonda elektr energetika sohasi qattiq yoqilg'ining asosiy iste'molchisi hisoblanadi. Ko'mirdan foydalanish umumiy hajmining 85 foizi shu

soha ulushiga to'g'ri keladi.³⁵ Shu bilan birga, sanoat, ijtimoiy va kommunal tarmoq korxonalari, aholining ham ushbu mahsulotga talabi ortib borayotir. "O'zbekenergo" davlat aksiyadorlik kompaniyasi bo'linmalaridan biri bo'lgan "O'zbekko'mir" ochiq aksiyadorlik jamiyati ko'mir qazib oladigan yirik korxonalar sirasiga kiradi.

"O'zbekko'mir" ochiq aksiyadorlik jamiyatidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning olti oyida tarmoq korxonalari ko'mir qazib olish bo'yicha o'z prognoz ko'rsatkichlarini 1,8 foiz oshirgan. O'tgan davrda qiymati 1,7 milliard so'mlik mahsulot sotilgan. Yangi ish o'rinlari tashkil etilgan. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish, resurs bazasini kengaytirish, kon ishlarini olib borish xavfsizligini ta'minlash, tarmoq korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash hisobidan ko'mir sanoatini yanada barqaror va muvozanatli rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 6-iyunda "2013-2018-yillar davrida ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda uni muvozanatli rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

"O'zbekko'mir" ochiq aksiyadorlik jamiyatidan ma'lum qilishlaricha, joriy yil oxirigacha uchta investitsiya loyihasi to'liq amalga oshiriladi. Texnologik aloqa va ma'lumotlarni uzatish korporativ tarmog'ini modernizatsiya qilish, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Buxoro viloyatlari, Qoraqalpog'iston Respublikasida hududiy distribyutorlik markazlari bunyod etish hamda jihozlash shular jumlasidan.

2013-yilda "Sharg'unko'mir" ochiq aksiyadorlik jamiyatida eskirgan uskunalar modernizatsiya qilinib, almashtiriladi, "O'zbekko'mir" ochiq aksiyadorlik jamiyatining ishlab chiqarish quvvatlariga yordam ko'rsatish va temir yo'l xo'jaligini yangilash ishlari davom ettiriladi. Markazlashtirilgan dispetcherlik nazorati va ishlab chiqarishni boshqarish bo'yicha avtomatlashtirilgan axborot tizimi barpo etiladi. 2014-yildan yangi Apartak ko'mir koni qurilishi boshlanadi va 2016-yilda nihoyasiga yetkaziladi.

³⁵ O'zA, 04.09.2013

Muxtasar aytganda, istiqbolli investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi O'zbekiston ko'mir sanoatini yangi rivojlanish bosqichiga ko'taradi, uning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini qattiq yoqilg'i bilan barqaror hamda uzluksiz ta'minlash imkonini beradi.

XULOSA

1. Bugungi kunda sodir bo'layotgan global fojia sababi shundan iboratki, XX asr davomida, ayniqsa, so'nggi 50 yil ichida insonlarning iqtisodiy rivojlanish maqsadida energiyadan foydalanish miqdori ancha oshdi. Bu esa atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki, iqlimning dunyo miqyosida global isib ketishi, yoqilg'ining organik turlaridan foydalanadigan issiqlik elektr stansiyalarining ishlashi natijasida yuzaga keladigan, shuningdek, tobora ko'payib borayotgan ichki yonish dvigatellarining atmosferaga chiqarayotgan gazlar bilan bevosita bog'liq.

So'ngi 50 yil ichida butun insoniyat tarixida qazib olingan yoqilg'iga nisbatan, ko'proq organik yoqilg'i qazib olindi. Joriy yuz yillik ham, bundan mustasno emas. Bugungi kunda dunyoda yoqilg'idan foydalanish miqdori yiliga 12 milliard tonna neft ekvivalentini tashkil etadi (taxminan bir kishiga 2 tonna neft). Organik yoqilg'iga bo'lgan talab esa jadal sur'atlarda yanada ortib boraveradi.

2. Ma'lumki bugungi kunda barcha davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi aksariyat hollarda xom-ashyo zahiralarining boyligi va turli tumanligiga bog'liq bolmoqda. xom-ashyozahiralar qatorida bugungi kunda ko'mir alohida o'rin egallaydi. Zero mazkur xom-ashyosonqi bir necha yillarda ko'mirning energiya manbai sifatidagi ahamiyati oshib bormoqda va kelajakda ushbu tendensiyaning saqlanishi kutilyapti.

Bugungi kunda jahondagi eng asosiy ko'mir qazib chiqaruvchilari va eksportyor davlatlardan Avstraliya, Indoneziya, Xitoy, Rossiya, AQSh va JAR davlatlarini misol qilishimiz mumkin. Mutahasislarning tahminlariga ko'ra 2030-yilgacha bo'lgan vaqtda ko'mirning asosiy eksportyorlari Avstraliya, Kanada va AQSh bo'lib qoladi va aksincha Xitoy va Vyetnan eksportini qisqartiradi. Kokslangan ko'mir bilan jahon savdosida Avstraliya ustunlik qilishi mumkin, uning hissasiga mintaqadagi kokslangan ko'mirga bo'lgan talabni 73% to'g'ri keladi. Zero, 2010-yilda Avstraliya ushbu sohaga katta investisialar kiritgan, yani ko'mirni eksport qilishga ihtisoslashtirilgan portlar modernizatsiya qilingan, ko'mir terminallarining quvvati oshirilgan, va ko'mir qazib chiqaruvchi

shtatlarining temir yo'llari eksport salohiyatini oshirish maqsadida takomillashtirilgan.

3. Ekspertlar xulosasiga ko'ra Xitoy mintaqadagi bozorga sezilarli ta'sir o'tkaza oladi. Xitoy ko'mir importini oshiradigan bo'lsa boshqa importyor davlatlar ko'mirni yuqorilangan bahoda sotib ololmaydilar, Xitoy eksporti kamayadigan bo'lsa ko'mir yetkazib beruvchilar o'z mahsulotini Yaponiya, Tayvan va Janubiy Koreyaga o'tkazib yubora oladilar (odatda bu davlatlar ko'mirni Xitoydan import qiladi).

Xitoy mutaxassislarining fikriga ko'ra, boshqa energotashuvchilarga nisbatan issiqlik va elektroenergiyani olish uchun ko'mirni ishlatish foydaliroq. Mamlakatda ishlab chiqarish asosiy xududlaridan ko'mirni sharqiy qirg'oqning aholi zich joylashgan xududlarga yetkazish bo'yicha keng transport tizimi yo'lga qo'yilgan (ulardan eng yirigi – Xitoy markaziy qismidagi Shansi provinsiyasi). Xitoyda ko'mirning importi 2009 yilda milliy iste'molning kamida 3% tashkil qildi. Portlar yaqinida joylashgan metallurgiya korxonalarining ehtiyojlari asosan yuqori sifatli koks ko'mirini tashkil etadi.

4. 1978-yildan Xitoy ochiqlik siyosatiga qaratilgan siyosiy-iqtisodiy islohatlarni boshlab yubordi. Bu Xitoy iqtisodiy rivojining boshlanishi edi. 1978-yildan boshlab Xitoy turli xil energetik siyosatlarni boshlab yubordi. Ochiqlik siyosati boshlangandan boshlab Xitoy energetik strategiyasini shartli ravishda 3 boshqichga bo'lsak bo'ladi.

Birinchi bosqichdagi Xitoy energetik strategiyasini o'z ehtiyojlarini qondira oladigan davr deb atashadi, bu vaqtda ko'mir asosiy energiya manbai sifatida xizmat qilgan. 90-yillargacha Xitoy asosiy e'tibo'rini o'zining neftga bo'lgan ichki talabini qondirishga qaratdi va neft talabini kamaytirishga qaratilgan bir qancha choralarni amalga oshirdi - "Ko'mir evaziga neft" va boshqalar. Ko'mir sanoatining Xitoy energoresurslari ichidagi pozitsiyasini kuchaytirdi. Shu bilan birga neft mahsulotlari katta hajmda chetga eksport qilina boshlandi.

Ikkinchi bosqichda (1993-2002 yillar) Xitoy enegetik strategiyasi “energiya resurslarini yetkazib berishni ta`minlash” bo`ldi. 90-yillarda Xitoyning og`ir sanoati tezlik bilan rivojlandi, bu yillarda og`ir sanoatning jami sanoat mahsulotlaridagi ulushi 50% lik ko`rsatkichdan oshib ketdi, keying yillarda esa 60% dan ham oshdi, hozirgi vaqtda yuqoridagi ko`rsatkich 70% ga yaqinlashib qolgan. Og`ir sanoatning tez sur`atlarda o`sishi sanoatda foydalanilayotgan energoresurslar hajmi ko`payishiga olib keldi, oxir oqibatda esa Xitoy 1993-yilda neft eksport qiluvchi mamlakatdan uni importyoriga aylanib qoldi. Mavjud xolatga ko`ra Xitoy “Talabni o`z ichki resurslarimiz bilan qondiramiz” strategiyasidan asta-sekin chekina boshladi va energoresurslar diversifikatsiyasi strategiyasini rivojlantirishni boshlab yubordi.

Uchinchi bosqichda Xitoy hukumati energetika xavfsizligi va bu sohani to`xtovsiz rivojlanib borishini ta`minlash strategiyasini boshlab yubordi.

5. Xitoy ko`mir sanoatidagi asosiy kamchiliklardan biri bu transport infrastrukturasi yetarlicha shakllantirilmaganligidadir. Hozirgi vaqtda temir yo`l bor quvvatidan ham oshiqroq faoliyat yuritmoqda. Ko`mir qazib olishni yoqilg`i-energetik va boshqa turdagi xom ashyolarga boy bo`lgan shimoliy g`arb va g`arbgacha siljishi bu hududda yangi temir tizimini barpo qilish ehtiyojini tug`dirmoqda. Bu yo`l yo`lovchilar uchun mo`ljallanmoqda, eski yo`l esa faqatgina xom ashyo mahsulotlarini tashishga moslashtiriladi. Yangi temir yo`lni ishga tushirilishi keying 10 yillik boshiga belgilangan.

6. Xitoy ko`mir sanoati arzon ishchi kuchi hisobiga chet el investorlari uchun juda jozibali hisoblanadi. AQSH fondlari xususan nafaqa fondlari Xitoy ko`mir sanoatiga o`z investitsiyalarini kiritmoqdalar. AQSH lik investorlar modernizatsiya jarayonlarida ham to`g`ridan to`g`ri, ham sheriklik asosida ishtirok etmoqdalar. Yaponiya va Niderlandiya, Ichki Mongoliyada yangi shaxtalar qurilishiga moddiy ko`mak jo`natyapti.

7. Xitoy dunyodagi 1-raqamli ko`mir iste`molchisi bo`lgani holda undagi tog` kon sanoatida texnik xavfsizlik choralari yetarlicha ta`minlanmagan. Oxirgi

yillarda XXR hukunati kam samarali kichik ko`mir shaxtlarini yopib tashlagan, bu chora shaxtalarda ishlayotgan ishchilarning ahvolini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlardan hisoblanadi.

Xitoy mehnat xavfsizligi ispeksiyasi xabariga ko`ra ko`mir qazib olish kombinatlaridagi falokat oqibatida halok bo`layotganlar soni yildan yilga qisqarib bormoqda. Lekin ayrim tashkilotlar xabariga ko`ra kombinatlar tomonidan berilgan ma`lumotlar ishonarli emas va halok bo`lganlar soni statistik ma`lumotdagidan ko`proqdir.

2013-yil dekabr oyida G`arbiy SinZyian Baiyanggou ko`mir shaxtasida yuz bergan portlashda 21 ta odam xalok bo`ldi. Shuningdek 2013-yil may oyida janubi-g`arbiy Sichuan va Guychjou provinsiyalarida 2 ta portlash natijasida umumiy xisobda 49 ta odam xalok bo`lgan.

8. Yana bir asosiy muammolardan biri bu aksariyat ko`mir sanoati ko`rhonalarining restrukturizatsiya qilinishidadir. 2009-yilda Xitoy ko`mir qazib chiqaruvchi tashkilotlarni birlashtirish va restuktrizatsiya qilishni rag`batlantiradi. Bu haqda taraqqiyot va islohatlar davlat qo`mitasinig raisi o`rinbosari, energetika ishlari bo`yicha davlat boshqarmasi boshlig`i Chjan Gobao ishchilarning butunXitoy kengashida ma`lum qildi.

Uning so`zlariga qaraganda Xitoy ko`mir resurslariga boy. Ko`mir zaxiralari hajmi bo`yicha 3-o`rinda, iste`moli bo`yicha esa 1-o`rinda. 2002-yildan mamlakatda ko`mir qazib chiqarish hajmi yiliga 200 mln tonnadan oshgan, o`rtacha o`sish ko`rsatkichi yiliga 11% ni tashkil etgan. Ko`mir sanoati Xitoyni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan.

Shu bilan birga Chjan Gobao ko`mir sanoatining taraqqiyot yo`lida mavjud bo`lgan ekstensiv rivojlanish, ko`p sonli kichik shaxtalar, ishlab chiqarishdagi xavfsizlik muaommolari, atrof-muxit himoyasi va ko`mir ishlab chiqarish bilan bog`liq bo`lgan muammolar haqida ham alohida to`xtalib o`tdi. Chjan Gobao sohadagi ko`mir ishlab chiqarish hajmining katta qismini kichik tashkilotlarni restuktrizatsiya qilish va tugatish yo`li bilan yirik ko`mir bazalarini tashkil qilish

va ularning mamlakatdagi yalpi ko`mir ishlab chiqarishdagi ulushini oshirishga qaratilgan choralarni tezlashtirishni ta`kidlab o`tdi.

9. Ma'lumki O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasida asrlar davomida savdo-iqtisodiy aloqalar rivojlanib kelinmoqda. Ushbu aloqalar yildan-yilga tobora yonalish turlari, sohalari va hajmi jihatidan faqat ortib bormoqda. O'zbekiston uchun Xitoy bugungi kunda asosiy va ishonchli investorlardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston va Xitoy davlatlari o'rtasida bugungi kunda yoqilg'i energetika tarmoqlarida ham keng qamrovli ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan va yildan-yilga rivojlanib bormoqda, neft-gaz, ko`mir sanoti shular jumlasidandir.

Mazkur tarmoqlar ichida ko`mir sanoati tarmoqi bo'yicha ham mustahkam ikki tomonlama iqtisodiy aloqalar o'rnatilgan bo'lib, ular bugungi kunda tobora rivojlanish jarayonidadir.

Birgina misol, Xitoyning China Coal Technology & Engineering Group (CCTEG) O'zbekistonni OAO "Uzbekugol" bilan Surxondaryodagi ko`mir qazib chiqarish tizimlarini modernizatsiya qilish bo'yicha 88,5 mln. dollarlik shartnoma imzolandi.

Xitoy kompaniyasi Boysun va Shatg'un toshko`mir konlaridagi ko`mir qazib olish texnologiyalarini almashtiradi. Xususan, CCTEG har biri yiliga 450 ming tonna ko`mir qazib chiqaruvchi mexanizatsiyalashgan komplekslarni "kalit osti(под ключ)" yetkazib beradi. Loyihada ko`mir transportirovkasini ham modernizatsiya qilish ko`zda tutilgan.

10. 2014-yil 1-yanvar xolatiga ko`ra O'zbekistonning ko`mir sanoati sohasida bandlarning umumiy soni 7396 kishi, shundan 6455 tasi OAO "O'zbek ko`mir" da, 341 tasi OAO "Sharg'un ko`mir" da, 252 tasi OOO "Apartak" da faoliyat yuritadi. Ulardan 5924 tasi ishchi hisoblanib, 5229 tasi OAO "O'zbek ko`mir" da, 259 tasi OAO "Sharg'un ko`mir" da, 193 tasi OOO "Apartak" da ishlaydi.

Xitoy ko`mir assotsiatsiyasi ma`lumotiga ko`ra 2013-yil yanvar iyul holati bo`yicha ko`mir sotilishi hajmi kamaygan. Shu bilan birga bu sohaning foydalilik darajasi ham tushgan.

Mavjud ma`lumotlarga asosan 2013-yil yanvar iyul holati bo`yicha Xitoyda 2 mlrd 130 mln tonna ko`mir qazib olingan va shundan 2 mlrd 70 mln tonnasi sotilgan. Bu ikki ko`rsatkich 2012-yilning shu davriga nisbatan 3,5 va 3,9%ga tushgan.

2013-yilda Xitoy ko`mir sanoati assotsiayasi xabariga ko`ra Xitoy ko`mir sanoatidagi ahvol 2012-yildagiga nisbatan yomonroq. 2013-yilda ko`mir qazib chiqarish va unga talab hajmi qisqargan. Ko`mir sanoatida faoliyat yuritayotgan tashkilotlarning samaradorligi hajmi ham qisqargan.

Soha assotsiyasi ma`lumotlariga asosan ko`mir sanoatidagi yirik va o`rtacha hajmdagi korxonalar foydasi 2013-yilda 2012-yildagiga nisbatan 43,3%ga qisqargan. Xususan yirik kompaniyalar daromad hajmi 40,8%ga qisqarib 24 ta kompaniya hatto zarar ham ko`rgan. Xeyluntzsyen, Tszilin, Sichuan, Yunnan, Anxoy, Tszyansi provinsiyalaridagi ko`mir sanoati va Chuntsin shahridagi ko`mir kompaniyalarining daromadi harajatlardan kam bo`lgan.

11. 2013 yilning 6 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2013-2018 yillar davrida ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda uni muvozanatli rivojlantirish dasturini tasdiqlash to'g'risida" Qaror qabul qildi.³⁶

Mazkur qaror iqtisodiyot tarmoqlari va aholining ko'mir mahsulotlariga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirish, resurs bazasini kengaytirish, kon ishlarini olib borish xavfsizligini ta'minlash, tarmoq korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash hisobiga ko'mir sanoatini yanada barqaror va muvozanatli rivojlantirish maqsadida qabul qilindi.

³⁶ www.UzReport.uz

Mazkur qaror bilan «O'zbekenergo» davlat-aksiyadorlik kompaniyasi, «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyati tomonidan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi hamda Moliya vazirligi va Davlat geologiya qo'mitasi bilan birgalikda ishlab chiqilgan “2013-2018 yillar davrida ko'mir sanoati korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda uni muvozanatli rivojlantirish dasturi” ma'qullandi.

Dastur 2013-2018 yillar davrida ko'mir tarmog'i korxonalarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash investitsiya loyihalari, O'zbekiston Respublikasi Davlat geologiya qo'mitasi korxonalari tomonidan bajariladigan ko'mir qazib olish uchun geologiya-qidiruv ishlarining prognoz parametrlari, shuningdek «Angren» koni yon devorlarining xavfsizligi va barqarorligini ta'minlash bo'yicha birinchi navbatdagi tadbirlari va 2013-2018 yillar davrida ko'mir tarmog'i korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash rejası, kon yuzasini ochish, ko'mir qazib olish shu jumladan ochiq va yer osti usullari bilan ko'mir qazib olish, shuningdek qo'shimcha foydali qazilmalarni qazib olish hajmlarining maqsadli parametrlarini ta'minlash nazarda tutadi. Jumladan, shu davr mobaynida sohada mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish jami 438,0 mln. AQSH dollari ajratildi, undan ko'mir sanoatini modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash Fondi hisobidan 67,3 mln. AQSH dollari, tijorat banklari kreditlari hisobidan esa 370,7 mln. AQSH dollari miqdorida mablag' belgilandi. 2013-2018 yillar davrida ko'mir tarmog'i korxonalari uchun mutaxassislar tayyorlash rejasiga ko'ra esa soha yo'nalishlari bo'yicha jami 240 ta magistrant, 258 ta bakalavr, 1899 ta o'rta maxsus bilim yurti bitiruvchilar tayyorlanishi ko'zda tutilmoqda.

Ushbu mablag'ning katta qismi, ya'ni 438 million dollari ko'mir qazib olish korxonalarining mavjud ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilishga yo'naltiriladi. Jumladan, “Sharg'un ko'mir” ochiq aksiyadorlik jamiyati korxonalarini yangilash, texnika va maxsus uskunalar xarid qilish uchun 334 million dollardan ortiq mablag' ajratiladi.

Investitsiya loyihalari amalga oshirilishi ustidan amaliy nazoratni, dastur bajarilishi monito`ringini va maqsadli parametrlarga o'z vaqtida erishishni ta'minlash maqsadida idoralararo guruh tashkil etildi. Quyidagilar dastur amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha idoralararo guruhning asosiy vazifalari yetib belgilandi:

- ishlab chiqarishning texnik darajasi va samaradorligini oshirish, zamonaviy yuqori samarali texnologiyalarni va boshqaruvning avtomatlashtirilgan tizimlarini joriy etish, ko'mir tarmog'ida ishlab turgan ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish va yangilarini qurishga yo'naltirilgan ustuvor investitsiya loyihalari o'z vaqtida amalga oshirilishiga ko'maklashish;

- «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyatining samarali ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish, moliyaviy va moddiy-texnika resurslaridan oqilona foydalanish, shuningdek ko'mir tarmog'i korxonalarining kadrlar salohiyatini mustahkamlash;

- kon ishlarini olib borishda sanoat xavfsizligi talablarini ta'minlashga yo'naltirilgan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli bajarish;

- o'rta muddatli va uzoq muddatli istiqbolda ko'mir tarmog'ini muvozanatli rivojlantirish, iqtisodiyot tarmoqlari va aholi ehtiyojlari bilan bog'liqlikda kon yuzasini ochish va ko'mir qazib olish bo'yicha maqsadli parametrlarga har yili erishish. Shuningdek, qarorda «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyati, «O'zog'irneftgazkimyoloyiha» instituti, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi, «Ko'mirloyiha» mas'uliyati cheklangan jamiyat shuningdek manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda loyiha hujjatlari o'z vaqtida ishlab chiqilishi, kelishilishi va tasdiqlanishini, hamda ushbu qarorga kiritilgan loyihalar amalga oshirilishini ta'minlanishi belgilab qo'yildi. Mazkur loyiha hujjatlarini ishlab chiqish uchun, zarurat bo'lganda, yyetakchi xorijiy ixtisoslashtirilgan loyiha institutlarini jalb etilishi «O'zbekko'mir» ochiq aksiyadorlik jamiyatiga ushbu qarorga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun kon transporti va texnologik asbob-uskunalar, avtotransport, texnika, ehtiyot qismlar va materiallar

sotib olish uchun tanlov asosida aniqlangan ishlab chiqaruvchi zavodlar yoki ularning rasmiy dillerlari bilan, yuklashdan oldin tekshirish o'tkazish sharti bilan, istisno tariqasida, to'g'ridan-to'g'ri kontraktlar tuzishga ruxsat berildi.

Muxtasar aytganda, istiqbolli investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi O'zbekiston ko'mir sanoatini yangi rivojlanish bosqichiga ko'taradi, uning ishlab chiqarish salohiyatini oshiradi, iqtisodiyot tarmoqlari va aholini qattiq yoqilg'i bilan barqaror hamda uzluksiz ta'minlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident Farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar:

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Iqtisodiyotning real sektori korxonalarini qo'llab-quvvatlash, ularni barqaror ishlashini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida". 2008 yil 28 noyabr, PF-4058-son.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlari ishlab chiqarish kengaytirilishini rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida". 2009 yil 28 yanvar, PQ-1050-son.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

2.1. Karimov. I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. T.: O'zbekiston, 2009. 56b.

2.2. Karimov. I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish-davr talabi. Xalq so'zi, 2009 yil 14 fevral.

2.3. Karimov. I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir.- Toshkent: O'zbekiston, 2010.-80 b.

3. Maxsus adabiyotlar:

3.1. Авдокушин Е.Ф. Международные экономические отношения, учебник, Юность, М., 2004 г. с.368.

3.2. Богомолов О.Т. Мировая экономика в век глобализации .: Учебник / О.Т.Богомолов. –М.: ЗАО «Издательство «Экономика», 2007. -359 с.

3.3. Бергер Я.М. Экономическая стратегия Китая.-М.: Магистр, 2009.- 574 с.

3.4. Гельбарс В., Кузнецова В. КНР. МЭиМО, №8, 2001.

3.5. Гельбрас, В. Кузнецова В. КНР: год суровых испытаний. // МЭиМО, №8, 2000.

3.6. Гельбрас В. Тридцатилетие эпохи “реформ и открытости” в Китае. //Мировая экономика и международные отношения, №6, 2009. с. 73-83.

3.7. Михеев В. Китай: новые компоненты стратегии развития. //МЭиМО, №7, 2004.

3.8. Гельбрас В. Цена экономических успехов Китая. //Мировая экономика и международные отношения, №9, 2007. С.29.

3.10. Завадский М. Спад на фоне роста. // Эксперт, №32, 2009. С. 34.

3.11. Инозметцев В. Учиться у Китая // Ведомости, 19.12.2009.

3.12. Лабинская И. Китай: универсальная модель модернизации? //Мировая экономика и международные отношения, №7, 2009. С. 46.

3.13. Ли Цзин Вэнь. Анализ и прогнозирование основных проблем экономики современного Китая // Прогнозирование развития КНР: экономика, информатика, внешняя политика и безопасность. / РАН ИДВ.-М., 2000, вып. 9., с.9-29.

3.14. Ли Ке Допустимые диспропорции и системная оптимизация региональной экономики Китая. // Проблемы теории и практики управления. 2002, № 1, с. 63-67.

3.15. Лю Гогун. Проблемы урегулирования экономической структуры Китая.// Проблемы ДВ,- 2001, № 6, с. 64-70.

3.16. Максаковский В.П. «Пути развития мировой энергетики». М., 2009 г. 55 стр.

3.17. Мельянцев В. Экономический рост Китая и Индии: динамика, пропорции и последствия. //МЭиМО, №9, 2007. с. 18-25.

3.18. Муромцева З.А. Китайская Народная Республика: путь к индустриализации нового типа. М.: ИДВ РАН, 2009. 264 с.

3.19. Ни Сюолин. Расширять внутреннее потребление! //Китай, №9 (47), 2009. С.32.

3.20. Островский А.В. Подготовиться к мировому кризису – китайский рецепт. //ЭКО, №5, 2005. С.38.

3.21. Островский А.В. Состояние и перспективы строительства экономики КНР, КНР: политика, экономика, культура, 2007г. Под ред.Титаренко М.Л., М., с. 77.

3.22. B.D.Sadibekova. Xitoyda fan va ta'lim sohasining rivojlanishi, Xitoy iqtisodiyoti, 3-qism, B. 44-56.

3.23. Потапов М. Вступление КНР в ВТО: условия присоединения и последствия для китайской экономики// Внешнеэкономическая модель развития стран Восточной Азии. -М.: Международные отношения, 2004.

3.24. Томберг Р. Основные черты энергетической стратегии КНР // Мировая экономика и международные отношения. 2011. №5. стр.66.

3.25. Швандар К.В. Прямые иностранные инвестиции в странах BRIC. //Банковское дело, №02, 2008. С.46,47.

3.26. Энрю Берг и Энн Кригер. Что будет означать вступление в члены ВТО для Китая и его торговых партнеров? //Финансы и развитие, №3, випуск 39, 2002. с. 10.

3.27. Пять лет членства в ВТО: пять важных результатов/Жэньминь жибао, 11.12.2006. <http://www.china.org.cn/russian/31516.htm>

3.28. Кэ Биншэн. Вступление Китая в ВТО: последствия и перспективы для сельского хозяйства. <http://www.rcrc.org.cn/RCRC/article/2003/11-04-14-1.htm>.

3.29. Китай: секреты восходящего мирового лидера (часть 2). Александр В. Смирнов, 14.05.09, <http://www.prostobankir.com.ua/>

3.30. Бай Цзиньфуй. Китайская экономика в оценке мирового сообщества. Издательский центр при Комитете по контролю за государственными фондами, февраль, 2005.

3.31. Вэнь Цзябао.Доклад о работе правительства. Хачитан 5 марта 2006 г. На 4-й сессии ВСНП 10 –го созыва. Пекин, 2006. 44-45 с.

3.32. Мировая экономика: прогноз до 2020 г., под ред. А.А. Дынкина, М., "Магистр", 2007., 429 с.

3.33. Экономика Китая вступает в XXI век. М.: 2004, 35-30 с.

3.34. Экономика Китая. Ван Мэнкуй и др. Межконтинентальное изд-во Китая, февраль, 2005.

3.35. Кэ Юнь. Наука и техника Китая. Пекин., 2005 .

3.36. Китайская Народная Республика: политика, экономика, культура, Под ред. М.Л. Титоренко, 2007, Москва, Русская панорама, 2008 г. 407 с.

3.37. «Энергетика ва барқарор ривожланиш муаммолари» шарҳи. БМТТД, БМТнинг Иқтисодиёт ва ижтимоий муаммолар департаменти, Жаҳон Энергетика кенгаши. - АҚШ. 2000

3.38. Энергетика тармоғи: масалалар, таҳлил ва ислохотлар дастури. Жаҳон банки. - Ўзбекистон, 2003

3.39. Марказий Осиёда сув ва энергетика ресурсларининг ўзаро боғлиқлиги. Жаҳон банки ҳисоботи. - 2004 йил январь.

3.40. Сув иситиш учун қуёш панелларини маҳаллий ишлаб чиқариш технологияларини топшириш. БМТТД, Дания ҳукумати, Тошкент шаҳар ҳокимлиги. - Тошкент, 2005

4. Ingliz tilidagi adabiyotlar

4.1. The Global Competitiveness Report 2006-2007.

4.2. International Monetary Fund. : International Financial Statistics. 2006. P262-943.

4.3. China Perspectives, 1996, № 3, p.20-21.

4.4. Economic and Social Survey of Asia and the Pacific.-New York, 2004, 299 p.

4.5. UNCTAD. Handbook of Statistics.- N.Y. and Geneva. 2004.-445 p.

4.6. Zhao Simon X.B. Zhang L. Economic growth and income inequality in Hong Kong trends and explanations China. 2005 3. №1, p.74-103.

4.7. Global Financial Stability Report. IMF. April, 2006. P.95/

- 4.8. WTO. Annual Report. 2005. P.58.
- 4.9. Key Indicators of Developing Asian and Pacific Countries, Manila ADB, 2008, P. 10.
- 4.10. UNCTAD. World Investment Report. 2006. P.9-10/
- 4.11. Budget of the U.S. Government, F.Y. 2006. Wash. 2005.p.14.
- 4.12.The World Bank. World Development Report: attacking poverty. Washington, D.C.,2000/2001-335p.
- 4.13 Trade and development Report, 2008, UNCTAD, New York and Geneva, 2008, p, 48.
- 4.14..UNCTAD.Yandbook of Statistics.-N.Y. and Geneva, 2004.- 446p.
- 4.15.UNCTAD. Trade and Development Report: Policy Coherence, Develjpment Strategies and Intergration into The World Economy.-N.Y. and Geneva, 2004.-159p.
- 4.16. «Renewables in IEA»// Presentation at Launch of a New IEA Study at the International Conference for Renewable Energy. - Bonn, Germany, 2004.
- 4.17. T.P. Salikhov, T.H. Nasirov. The Conception of the Use of Renewable Energy Sources and Their Role in the Energy Balance of Uzbekistan. Renewable energy for Central Asia Countries. - Netherlands, 2005. p. 103-121.

5. Statistik materiallar

- 5.1.Ўзбекистон Республикасининг йиллик статистик туплами 2000-2008. Т.: УзР давлат статистика кумитаси, 2001-2010 йй.
- 5.2.WTO Annual Report. International Trade Statistics. WTO 2000-2007гг.
- 5.3.World Investment Report. UNCTAD. New York and Geneva. 2005.
- 5.4.World Development Report. The World Bank. Washington. 2007.
- 5.5. Handbook of International Trade and Statistics. UNCTAD. New York and Geneva. 2007.

6. Internet resurslar

- 6.1. www.mineconomy.uz Министерство экономики
- 6.2. www.mf.uz Министерство финансов
- 6.3. www.mfer.uz Министерство внешних экономических связей, инвестиций и торговли
- 6.4. www.stat.uz Государственный комитет по статистике
- 6.5. www.gki.uz Государственный комитет по управлению государственным имуществом.
- 6.6. www.statistics.uz База данных статистической информации по Узбекистану.
- 6.7. www.cer.uz Центр экономических исследований.
- 6.8. [http:// www.itds.treas.gov/nafta.html](http://www.itds.treas.gov/nafta.html)
- 6.9. www.oecd.org
- 6.10. [http:// www.agoa.gov/indeks.html](http://www.agoa.gov/indeks.html)
- 6.11 [http:// www.ustr.gov/ Trade Agreements/ indeks.html](http://www.ustr.gov/Trade%20Agreements/indeks.html)
- 6.12. [http:// www.irex.ru/press](http://www.irex.ru/press)
- 6.13. [http:// www. Economy.gov.ru/](http://www.Economy.gov.ru/)
- 6.14. [http:// www.centrasia.ru/](http://www.centrasia.ru/)
- 6.15. Интернет-сайт Yandex, 2006 <http://energia.narod.ru/regener.htm>
- 6.16. www.worldbank.org/reserch/growth/wupdate.htm
- 6.17. [http :// www . oecd . org / dataoecd /15/2/43319682. pdf](http://www.oecd.org/dataoecd/15/2/43319682.pdf)
- 6.18. http://siteresources.worldbank.org/INTRANETTRADE/Resources/239054-1126812419270/Trade_Note_37.pdf.
- 6.19. <http://russian.china.org.cn>.
- 6.20. <http://www.imf.org/external/russian/pubs/ft/weo/2008/update/03/pdf/1108r.pdf>,
- 6.21. [http:// www.mag.doc.gov/atpa/webmain/htm](http://www.mag.doc.gov/atpa/webmain/htm)
- 6.22. [http:// www.weforum.org/](http://www.weforum.org/)
- 6.23. dtheis@worldbank.org

- 6.24. [http:// www.wto.org](http://www.wto.org)http://www.russian.xinhuanet.com/russian/2009-01/15/content_800925.htm
- 6.25. www.cinhua.org.cn
- 6.26. <http://uza.uz/oz/business/32426/>
- 6.27. <http://kun.uz/2013/09/09/coal/>
- 6.28. www.UzReport.uz
- 7.30. <http://russian.china.org.cn/business/txt/200905/08/content17742902.htm>
- 7.31. www.chinadaily.com